

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MISIQA TA'LIMI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Pedagogika fakul'teti dekani

_____ dots. SH.Nurullayeva

“ _____ ” _____

Aralova Shoiraxo'r Ixtiyor qizi

**“Kamonchali cholg'ular takomillashuv jarayonining musiqiy ta'limda
tutgan o'rni”**

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Qurbonov Q.

Qarshi 2016

Mundarija

Kirish.....	3
I bob. Dunyo xalqlarining kamonchali cholg'ulari.....	7
1.1. Kamonchali cholg'ularning shakllanishi.....	7
1.2 Turli millat kamonli cholg'ulari xususida.....	18
II bob Kamonchali cholg'ularning takomillashuvi va musiqiy ta'limda tutgan o'rni.....	41
2.1 G'ijjak chog'u asbobi oilasi.....	41
2.2 G'ijjak cholg'usining musiqiy ta'limda tutgan o'rni.....	66
Xulosa.....	75
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	76
Ilovalar	77

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi". Respublikamizda o'tkazilayotgan islohotlarni takomillashtirish iqtisodiyotimizni rivojlangan davlatlar qatorida bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Oldimizda turgan maqsadlarimizga erishish yoshlarimizning intellectual salohiyati va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. Yani barkamol avlodlarni tarbiyalash oldimizga turgan eng muhim vazifalaridan biridir.

Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak manaviyat yengilmas kuch" asarida musiqa san'ati haqida ham o'z fikrlarini bildirganlar. Musiqaning inson ruhiy kamolotiga ta'siri haqida gapirib albatta, bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmashligini ta'kidlaganlar. Prezidentimizning "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan chora tadbirlari"¹ to'g'risidagi farmoyishlari ham musiqa san'atini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotganining natijasidir.

Yurtboshimiz e'tirof etganlaridek barkamol avlodning bilim va salohiyatini oshirish ularni qobiliyatini yuksaltirish millatimizning kelajagini har tomonlama yuksaltirishga xizmat qiladi. Shunday qilib barkamol avlod ta'lim tarbiyasi chinakam ma'rifatli kishilarni aniq maqsad yo'lida mustaqil fikrlay oladigan o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan shaxslarni shakllantirish davlatimiz siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

¹ "Халқ сўзи" рўзномаси Т. 8.01. 2008 -йил 4- бет

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'limni isloh qilish, musiqa darslarini milliy tarbiya asosida olib borish borasida bir qator ishlar rejalashtirildi. Davlat Ta'lim standartlari asosida madaniy merosimizning milliy va umumbashariy qadriyatlariga tayanib, musiqiy ta'limga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, Davlat Ta'lim standartida belgilangan milliy madaniy meroslarimizni, ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qadriyatlarimizni, milliy xalq qo'shiqlari va kuylarini yosh avlodga o'rgatish va ularning ma'naviy ongini shakllantirish muhim vazifa etib belgilandi.

Komil insonni shakllantirishda musiqa o'qituvchisi nimalarga e'tibor berishi lozim? Avvalo o'qivchi yoshlarning musiqaviy iste'dodi, fanga bo'lgan qiziqishi, cholg'u va ijrochilik, dirijyorlik, qo'shiq kuylash va nazariy bilimlarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bugungi kunda bu borada qanday ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, yaxshi sozanda va qo'shiq kuylash uchun musiqa savodxonligiga ega bo'lish, musiqa maktabi hamda umumta'lim maktabi va kollej ma'lumotiga ega bo'lib, oliy musiqa dargohida biror bir cholg'u asbobini mukammal darajada uzlashtirish lozim. Yoshlardagi musiqaga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalab biror bir cholg'u asbobida ilro mahoratini shakllantirishimiz kerak. Gijjak cholg'usi sehrli ohangi biln yoshlarimizning qalbini o'ziga rom etadi. Bu esa hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanib, tabiiyki, yoshlarimizni milliy cholg'u asboblarimizni atroflicha o'rganishini taqozo etadi. Shuning uchun biz "Kamonchali cholg'ular takomillashuv jaroyonining musiqiy ta'limda tutgan o'rni" mavzusini dolzarb mavzu sifatida o'rganishga qaror qildik.

Malakaviy bitiruv ishning maqsadi. Bitiruv malakaviy ish gijjak sozida ijrochilik mohorati shakllantirish.

gijjakda toza tovush hosil qilish.

Kamonni to'g'ri ushlash.

Kelajakda kamonchali cholgularda mohirona ijro eta oladigan , o'z o'rniga ega bo'lgan gijjak sozi ijrochilari va sozandalarni yetkazib berish

Bitiruv ishning vazifasi. O'zbekistonda cholg'u ijrochilik san'atini rivojlantirishda milliy cholg'u asboblarimizning o'rni nihoyatda beqiyosdir. O'ijjak cholg'u asbobida

o'qitish uslubiyotiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda, mustaqil darslarni ilg'or pedagogik tajribalar asosida tashkil etishdan va nazariy hamda amaliy bilimlarni yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan.

Shu sababli har bir cholg'u asbobda ijro mahoratini o'stirish har bir cholg'u asbobida toza intonatsiyada to'g'ri holatni qo'yib, mohirona ijro uslublarini egallagan holda o'zbek xalq kuylarini, qardosh rus va chet el kompazitorlarining asarlarini keng xalq ommasiga yetkazish va kelajakda yoshlarni ham ijrochi sozanda sifatida tarbiyalashdir.

Tadqiqotning ilmiy yangililgi va amaliy ahamiyati

- 1.O'sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi ijrochi sozanda etib tarbiyalash.
- 2.Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini gijjak soziga bo'lgan qiziqishini tarbiyalash.
3. Gijjak cholg'usida ijroni uzlashtirish uchun gijjakda ijro etilgan kuylardan foydalanish.

Tadqiqotning metodologik asoslari.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Shuningdek «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari tashkil etadi.

Ilmiy - tadqiqot metodlari.

- 1.Ta'limga oid davlat hujjatlari, gijjak ta'limiga oid o'quv dasturlari , davlat ta'lim standartlari, darsliklar, o'quv qo'llanma va boshqa adabiyotlarni tahlil etish.
- 2.Kuzatish.
- 3.Suhbat.
4. Tajribani tashkil etish va umumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishi mundarijasi: Kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Dunyo xalqlarining kamonchali cholg'ulari

1.1. Kamonchali cholg'ularning shakllanishi

Eramizdan oldingi IV asrda grek faylasufi Platon shunday degan edi: “Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san’atda mujassamlashgan. Zeroki ohang (ritm) va uyg’unlik (garmoniya) bolalik chog’ida qalbgacha chuqur yo‘l topadi va salobat baxsh etadi, uni ko‘rkam qiladi. Bu esa musiqiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi, aks holda uning teskarisi bo‘lib chiqadi”.

Musiqiy cholg‘ular insoniyat ma’naviyatini janglarda tarannum etuvchi vosita, ya’ni xalq ijodiyoti masuli bo‘lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasilib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg‘ularda har bir xalqning milliy g‘ururi, an’anasi, qadriyatlari o‘z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg‘ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg‘ularga bo‘lgan e’tibor katta bo‘lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.

Xalq cholg‘ulari uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Chunki eng qadimgi mehnat ko‘shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Undan keyin shovqinli cholg‘ular paydo bo‘ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta’kidlagan, shovqinli cholg‘ular ta’sirini ko‘paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o‘ziga xos, takrorlanmas go‘zal holatni vujudga keltirar edi.

Qadimgi sharq madaniyati bag‘rida, o‘zbek xalq cholg‘ulari shakllandi. Ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi. o‘ziga xos tuzilishi tufayli, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qo‘bizlar an’anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Quldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproqqal’a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog‘ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg‘ularining tasvirlari topildi.

Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashdi.

Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi.

Topilgan madaniy yodgorliklarda turli xil musiqa asboblari: tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, nay, surnay, karnay, doirasimon cholg'ular chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan.

Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda «Navro'z», «Lola sayli», «Xosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'u ansambllari, xonanda va sozandalar xamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog'ora va urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan.

IX asr oxirida Somoniylar mahalliy feodal sulolasi O'rta Osiyoning kattagina qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. Bu yerda adabiyot va musiqa taraqqiy etdi. Hayot sharoitining o'zgarishi tufayli musiqa san'atining ijtimoiy ahamiyati oshdi. Shaharliklar va yuqori tabaqa sinflari turmushida musiqaning roli sezilarli kuchaydi. O'sha paytlardayoq yakkanavoz, ansambl musiqachiligi va raqsni o'z ichiga olgan vokal cholg'u musiqa turkumlari mavjud edi.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblari chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird

an'analari qaror topdi va rivojlandi. Ayni shu paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'u asboblarning yangi namunalari kashf etishdi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rnini va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar.

Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa al-kabr"), ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitobi ush-shifo") qomusidagi "Musiqa haqidagi risola", al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Sayfuddin Urmaviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitobi" yoki "Sharofiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiqa haqidagi risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Sayfuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmaviya shahrida tug'ilgan. Sayfuddinning eng katta yutug'i lad (modius)larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir. Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) "Musiqa haqidagi to'liq kitob"i ("Kitob ul-kabir fil-musiqiy") uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni – musiqada lادلarni xarflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog'iy (XV asr), Abduqodir ibn-Royibiy (Marog'iy) Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan, lekin hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida-Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqa ilmida ohanglar to'plami" ("Jami al-alhan fi-ilm al-musiqiy") risolasida musiqa haqidagi ta'limotni-kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg'usi borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi. Al-Xusaynning (XV asr) "Musiqiy kanonlar" risolasida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqa cholg'usi-dutor haqida ma'lumot berilgan. Qutbiddin ash-SHeroziy (1236-1310) Eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozi musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan. XVII asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak kabi musiqa cholg'ulari haqida batafsil

ma'lumotlar bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qiymatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari «Kitob al – musiqa al -kabir» («Musiqa haqida katta kitob») ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga axamiyat beradi va u: «... Jangu - jadallarda, raqslarda, to'y - tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor» deb yozgan edi.

Forobiyning yuqoridagi fikri cholg'ularning nafaqat saroy a'yonlari, balki shahar va qishloq aholisi, hunurmandlar orasida shuningdek, musiqa madaniyatida yetakchi rol o'ynaganligini isbotlaydi.

Kitobning ikkinchi qismi boshdan-oxir o'sha davr musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan. Unda lyutnya, tanbur, nay, rubob, chang, qonun va boshqa musiqa cholg'ulari izchil va batafsil ta'riflanadi. Forobiy torli, mizrobli lyutnyani o'sha davrda eng keng tarqalgan cholg'u hisoblagan. Lyutnya o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lado)lar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelyapdi. Zamonaviy ud namunalari Toshkent Davlat konservatoriyasining sohaviy-tajribaviy sinovxonasida mavjud.

«Musiqa haqidagi katta kitob»da Forobiy yana bir cholg'u asbobi- tanburni ham ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turdagi cholg'ulardan biridir.

Tanburda torlar noxun (metaldan yasalgan maxsus chertmak-tirnoq) yordamida chertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholg'udir. Tanburning ikki yoki uch jez tori bo'lgan. Uning ikki turi ma'lum: Xuroson va Bag'dod tanburlari. Bag'dod tanburlarining maqomlari kamroq (beshta), cholg'u dastasi kaltaroq bo'lgan.

Xuroson tanburining maqomlari ko'p bo'lgan, dastasida cholg'u bo'g'zidan to dastaning yarmigacha oralig'ida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha o'z shaklini yo'qotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholg'usi sifatida amaliyotda foydalanib kelinyapti.

Forobiy, shuningdek, nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli cholg'ularini ovoz hosil qilishi prinsipiga ko'ra paysimon guruhga kiritadi.

Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda xam Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vetnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizga, ozarbayjonlar ney (juda kam uchraydi), qirg'izlar uoo, choor (cho'ponlarning cholg'u asbobi), o'zbeklar nay deb ataydi. Olim ko'pincha tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham to'xtaladi.

Forobiy, shuningdek, dunay (mizmar)ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo'sh qamish naychalardan tuzilgan cholg'u)ga o'xshaydi.

Forobiy risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi Qashqar rubobiga o'xshab, rezanator va ancha uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo'lgan. 1 yog'och dekali va asosiy qismi yog'ochdan, 2 pastki qismi charmdan ishlangan dekali.

Forobiy shahodat berishicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Risolada ta'riflangan barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Forobiyning guvohlik berishicha, ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o'ynagan. «Cholg'u asboblari haqida kitob» da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularini udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soldi. Bu soha keyinchalik

boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi.

Yashagan davriga ko'ra Buyuk olim ibn Sino Forobiya juda yaqin. Uning "Davolash kitobi" deb nomlangan yirik qomusning "Musika haqida risola" bobida o'sha davrning musiqachiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolalarda cholg'ular ta'rifiga anchagina o'rin ajratilgan. Ibn Sino o'z davri musiqalarini ikki guruhga bo'ladi: mizrobli, noxunli (barbod, tanbur, rubob) va butun rezanator qopqog'i bo'ylab tortilgan ochiq torli cholg'ulari (shohruh, chiltor, lira, chang, arfa).

O'sha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Sayfiuddin Urmaviy musika ilmi tizimi (sistemasini) rivojlantirdi. U usta cholg'uchi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Udda olib borgan tajribalariga tayanib, olim o'z nazariy qoidalarini bayon etdi. Urmaviyning "Taqvadorlik kitobi"da cholg'u asboblari ichida ud eng mashhur va eng zamonaviyidir deb ta'kidlaganlar. Udning besh juft tori kvarta tartibidagi 7 ta maqomi (ladi) bo'lgan. Torlari bam, masnas, masna, zir va eng yuqorisi hadd deb atalgan. Besh qo'sh torli takomillashgan ud keyingi paytlarda ham o'z tuzilishini saqlab qolgan. Udning kvartaga sozlangan besh qo'sh tori va yetti maqomi (ladasi) haqida SHeroziy (1236-1311), Jomiy (XV asr), al-Husayniy, Marogiy, ibn Sinolar ham yozishgan. Jomiyning "Musika haqidagi risola"sida keltirilgan ud dastasining to'la chizmasi uni sozlash haqida to'liq tasavvur beradi. Olimning tasdiqlashicha mavjud 12 maqom qadimiy yetuk musiqaning asosidir. Jomiy musiqaning tinglovchilariga ta'siri haqida to'xtalib, uning chuqur ruhiy va ma'naviy axamiyati bor, deb hisoblaydi.

XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi torli cholg'ular, shuningdek, damli cholg'u nayning ta'riflari berilgan.

Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy cholg'ular haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musika madaniyati, chunonchi, O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqida nodir ma'lumotlar mavjud.

Darvish Alining risolasi XVI-XVII asrlar O'rta Osiyo musiqasini o'rganish uchun

qimmatbaho manbadir. Mazkur asarda mashhur xonanda va cholg'uchilar, bastakorlarning ijodiy tarjimai hollari bayon etilgan.

Darvish Ali o'tmishdoshlari singari, torli mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg'ular "shohi" deb atadi. Risolada yozilishicha, chang cholg'uchilar homiysi Zuhraga bag'ishlangan.

Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti torli va yetti pardasi bo'lgan. Bulardan tashqari, risolada qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak, musiqa, ekbon-nay, (damli, charmli), Xitoyda tarqalgan ruxavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ular ham tilga olingan.

Darvish Ali ta'rif bergan cholg'ulardan yettitasi, tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qo'biz, g'ijjak o'sha davrda keng tarqalgan cholg'ular edi.

Darvish Alining ma'lumotlari musiqa amaliyotida dastlab ansamblida uyg'un kalorit hosil qiladigan torli-noxunli va torli -kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abudullohar, Mavlono Qosimi- Rabboniy, Sulton - Ahmadiy - "devona" rubobchilar, aka-uka Shayx Abu - Bakri Rabboniy va Shayx Behduchi, dono qonunchi shayx Shamsi Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olingan.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatliki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qo'biz, doira, nog'ora, ud) O'rta Osiyoning hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va boshqa respublikalarida, shuningdek, Ozarbayjonda bizning kunlarga saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobaynida o'zbek xalqining madaniy turmushidan mustahkam o'rin olib, uning madaniy xayotida keng qo'llanib kelingan. Shunday ekan, bu cholg'ularni o'zbek xalq cholg'ulari, deb atash o'rinlidir. Abdul Fazl Boyhaqiy (XIV asr) asarlarida torli mizrobli (rud, barbad, tanbur), damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, litavra va baraban) singarilarning nomlari keltirilgan.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida o'tmishda shoirlar asarlariga javob yozish («nazira») sistemasi keng qo'llanilgan. Ko'plab «Xamsa» lar ham shu yo'sinda yaratilgan. Navoiy o'zining «Sab'ai sayyor» («Xamsa» dostonlarining biri) dostonida

Bahrom Go'r haqidagi qadimiy afsonani, yangicha talqin etdi. Asar qahramoni - chang cholg'uchisi Dilorom deb atalgan. Shoir uning cholg'usini musiqa timsoli sifatida gavdalantirgan.

Zahriddin Muhammad Boburning (1483-1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'uchilarning o'z iste'dodlarini namoyon etishiga ko'maklashgan. «Boburnoma»da o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarining nomlari zikr etilgan. Bobur, shuningdek, Shoh Kulmiy-G'ijjakiy, Husayn Udiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi mohir ijrochilarni ham tilga oladi.

Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doira, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambl ijrosida ham, yakka ijroda ham birdek qo'llanilgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan.

XV-XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, bu davrga kelib, O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrolik madaniyati o'z kamolotiga yetdi. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilari ayni chog'da o'zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O'sha paytdayoq mohir chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bulaman ijrochilari va yetuk xonandalari bo'lgan, ular o'ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilik ham rivojlangan.

Vosifiy o'z «estaliklar» ida treldek ajoyib uslub o'ylab topgan qonun cholg'uchisi Hoji Abdullo Marvarid nomini keltiradi. U bastalagan kuy va qo'shiqlar xalq orasida keng tarqalgan. Shunday qilib, XIV-XVII asr tasviriy san'atida va adabiy merosida ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ulari asosiy tiplarining barqarorligini tasdiqlovchi boy material bo'lgan.

O'rta Osiyo olimlarining musiqa haqidagi risolalari, badiiy adabiyot, rassomchilik bizning kunlarga yetib kelgan o'zbek xalq cholg'ulari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjirdagi ayrim uzilgan halqalarini qaysidir darajada tiklash imkonini beradi. Necha yuz yillar o'tdi, musiqa cholg'ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o'z o'rnini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda.

Musiqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish

XVII-XIX asrlarda cholg'ular batafsil ta'riflangan yirik asarlar yaratilmadi. Bu

ko'proq feodal tarqoqligining kuchayishi bilan bog'liq. Ulkan davlat ayrim-ayrim xonliklarga bo'linib ketadi. (Buxoro, Xiva, Quqon xonliklari). Bu esa musiqa san'ati taraqqiyotida aks etmay qolmadi. O'zbek musiqa madaniyati mahalliy xususiyatlar kasb eta boshladi. O'ziga xos musiqa cholg'ulari shakllandi. Musiqa turlaridan-maqomlar bundan buyon har xonlikda o'ziga xos yo'nalishda takomillashdi. Maqom ijrochilari zarurat yuzasidan o'zgarishlar kiritishdi. Shunga qaramay, musiqa umumiy xususiyatlarini saqlab qolishdi. Har bir ijrochi maqom ijrosiga ijodiy yondashib, musiqa ijrosiga o'ziga xos takrorlanmas jihatlar kiritdi. Og'zaki tarzda cholg'ularni saqlab qolish an'anasi maqomning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, busiz uning yashab qolish va so'nggi taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Har bir xonlikda o'ziga xos bir yo'nalishda xalq musiqasining yangi turlari yaratildi; bayramona, kuylar, xalq tomosha kuylari (dorbozlik, ko'g'irchoqbozlik) yangi tipdagi raqs kuylari. Bu kuylar o'zining quvnoqligi, sho'xligi bilan bir-biridan farq qilib turgan va keng xalq ommasini o'ziga jalb etgan.

XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyatida xalq va professional musiqa san'atining quyidagi ko'plab yangi turlari takomillasha boshladi; katta ashula, katta o'yin, Shodiyona, Navro'z, Mavrigiy, Shashmaqom, Chor maqom (unga Dugoh, Husayniy, Chorgoh, Bayot, Gulyori-Shahnoz kirgan). Joylarda mavjud musiqa cholg'ulari va ijrochilarga bog'liq holda turlicha cholg'u ansambllari tuzilgan. Ko'p hollarda xalq cholg'ulari ansambl tarkibiga g'ijjak, tanbur, dutor, chang, nay, qo'shnay, doira kabi musiqa cholg'ulari kiritilgan.

Musiqachilikda olti turkum asarlardan iborat Shashmaqom ayniqsa mashhur bo'lgan. U O'rta Osiyo xalqlari syuita (turkum) shaklidagi professional musiqasining uzoq taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan. I.Rajabov yozadi: Shashmaqom olti xil turli lad sistemalaridan iborat, ularning har biri, o'z navbatida, mushkilot (cholg'u) va nasr (ashula) bo'limlaridan iborat bo'lgan quyidagi maqomlarga (qismlarga) bo'linadi:

«Rost», «Buzrug», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» ...

Har bir maqom 20 tadan 40 tagacha katta-kichik qismlarni o'z ichiga oladi. Hammasi bo'lib turkumda 250 ga yaqin mushkilot va nasr qismlari bor. Bir

maqomning ijrosi bir necha soat davom etgan.

Xalq cholg'ulari xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Xalq cholg'ulari haqidagi tasavvurlarni badiiy asarlardagi musiqa cholg'ulari ifodalari, kitob miniatyuralaridagi cholg'uchilar tasviri boyitadi. Firdavsiy, Sa'diy, Navoiy, Dehlaviylarning asarlarida 60 dan ziyod xalq cholg'ularining nomi zikr etilgan.

Maqomlar asosan saroy ayonlari huzurida muayyan vaqtda yoki muayyan sharoitlarda ijro etilgan. Hatto mohir qo'shiqchilarning o'ziga xos musobaqasi (ayniqsa, avjlarni ijro etishda, shuningdek, yangi qismlarini to'kishda) tashkil etilgani ma'lum.

Musiqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlantirish davom etdi. Maqom o'zining oxang va ritm qonuniyatlariga ko'ra xalq qo'shiqlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, faqat qamrovining kengligi bilan farqlanar edi. Odatda, har bir maqom ikki katta qismga bo'lingan.

Birinchisi – faqat cholg'ularda ijro etilgan qismi bo'lib mushkilot deb atalgan, ikkinchisi – cholg'ular jo'rligida aytiladigan ashula qismi bo'lib, nasr deb atalgan. Nasr o'z ichiga raqs kuyi-uferni ham olgan.

Cholg'uchilar orasida musiqa tovushlarini yozib ko'rsatadigan maxsus belgilar sistemasi notatsiya yaratishga intilish paydo bo'ldi. Buni amalga oshirish shoir-musiqachi Paxlavon niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879) ga nasib etdi. Iste'dodli musiqa ijrochisi mohir tanburchi va g'ijjakchi Paxlavon niyoz Mirzaboshi sayohat chog'ida nota bo'yicha kuy chalayotgan cholg'uchilarni ko'rib hayratga tushdi. Mirzaboshi - Komil Xorazmiy Xorazmga qaytishi bilanoq ilgaridan diliga tugib yurgan niyati maqomlarni yozib olishga ilhom bilan kirishdi.

Paxlovon noyoz Mirzaboshi Komilning shogirdi Muhammad Yoqub Xarratov (1867-1939) mashhur tanburchi edi. U nafaqat chog'uchilik san'atini, balki hattotlik san'atini ham mukammal egallagan edi. Iste'dodli cholg'uchi Komil Xorazmiy rahbarlik qilgan saroy xalq cholg'ulari ansambilining sozandasi bo'lgan Muhammad

Yoqub Xarratov (Matyoqub Xarratov) tanbur nototsiyasini tuzishda va xorazmcha maqomlarni yozib olishda qatnashgan. Ustozidan xorazmcha maqom turkumlarini qabul qilib, ularning saqlanib qolishiga katta hissa qo'shgan.

Muhammad Rahimxon (1806-1825) saroyida ishlagan mashhur tanburchi va qo'shiqchi Niyozxo'ja Hojining ijodiy va ijrochilik faoliyati Xivada kechdi. U xorazm musiqa madaniyatiga katta e'tibor berdi.

Matyoqub Xarratovning aytishicha, Niyozxo'ja Buxoroga «Shashmaqom»ni o'rganish uchun borgan. U Buxorodan qaytgach, buxorocha maqomlar Xiva cholg'uchilari tomonidan o'zlashtirilib, Xorazmda keng tarqala boshladi. Xorazmning mashhur cholg'uchilari Muxammadrahim Feruz, Komil Xorazmiy, Mirzo Muxammadrasul va boshqalar Niyozxo'ja bilan hamkorlikda maqomlarga yangi cholg'u bo'limlari qo'shib, ularni boyitdilar.

1.2 Turli millat kamonli cholg'ulari xususida


Endi jahon manba'larida keng tarqalgan bizning kunlarimizgacha yetib kelgan, hozirda biroz iste'moldan qolgan bo'lsada, lekin badiiy manba'lardan o'rin olgan ayrim torli-kamonli cholg'ularning turlari bilan qisqacha tanishib chiqamiz;

Matoutsin (xitoy va mo'g'ul), Kyamoncha (ozar, arman va gruzin), Ravanastr (hind), Sarangi (hind), Apxerts (abxaz), Banxu (xitoy), Violonchel (italiya), Gudok(rus), Diga (Latish), Qobiz (qozoq), Alt Qobiz, Bas Qobiz, Kontrabas Qobiz (qozoq), Gadulka (bolgar), Kontrabas, Kiyak (qirg'iz), Kebab (qidiutr, hind va eron), Skripka (italiya), Sigudek (komi), Sixu (xitoy) Xuchir (mo'g'ul), Szinxu (xitoy), Chuniri (gurji), Erxu(xitoy) Basetliya (belarus), Viol d'amur, Chagana (dog'iston), chianuri (gurji), Gusli (slavyan), Gensle (Polyak), Ardanuchi (ajar), Atux pandur (ingush),

Basolya (ukrain), Yexu (xitoy), Liritsa(yugoslav) cholg'ulari shular jumlasidandir. Yuqorida nomlari keltirilgan turli xalqlar kamonchali cholg'ularidan ayrimlari haqida imkon doirasida to'xtalib o'tamiz:

MATOUTSIN


Matoutsin (Matoutsin - xitoy tilidan olingan bo'lib, mato "ot boshli" stin-"torli kamonchali cholg'u" demakdir) kamon bilan ijro qilinadigan xitoy va mo'g'ul millatiga mansub torli cholg'u hisoblanadi. matoutsinnig kelib chiqishi Mo'g'ulistonga borib taqaladi, Bu soz mo'g'ullarda *morinxo'r* deb atalgan. matoutsinning kosaxonasi trapetsiya shaklida bo'lib, teri bilan qoplanadi. Qopqog'iga turli rang va shakllagi naqshlar chiziladi. Uning yon qismi ham shu tartibda tuzatikib bunga rezonans teshiklar o'yiladi. Dastaning uchiga otning bosh shakli yasaladi. matoutsin ikki tordan iborat bo'lib, kvarta oralig'ida sozlanadi. Cholg'uning torlari ot yolidan qilingan. Sozning uzunligi 1 metr atrofida bo'lib, kamonning yog'och qismi bambuk daraxtidan yasalgan.



Matoutsinning surati


KYAMANCHA

Kyamancha - kamon bilan ijro etiladigan Ozarbayjon xalq torli cholg'usi sanaladi. Xuddi shu ko'rinishda kamon bilan ijro qilinadigan arman xalq torli cholg'usi esa, kyamani deb nomlanadi. Kyamancha sozi ko'p manbalarda - kyamancha, kamoncha tarzida ifodalanib, asosan, ozarbayjon, arman va gruzin xalqlari o'rtasida juda keng tarqalgan. Shuningdek, aksariyat Sharq xalqlarida kyamancha turli nomlar bilan ham qo'llaniladi. umladan bizning iste'molimizda g'ijjak deb yuritiladi. Kyamanchada asosan, uch yoki to'rt tor bo'lib, kvinta oralig'ida sozlanadi. 1-tori ikkinchi oktava *mi* tovushiga, 2-tori birinchi oktava *lya* tovushiga, 3-tori birinchi oktava *re* tovushiga va oxirgi 4-tori kichik oktavadagi *sol* tovushlariga sozlanadi.



RAVANASTR


Ravanastr - hind xalqining kamoncha bilan chalinadigan qadimiy torli cholg'usi bo'lib, turli manbalarda bu soz - ravanastram, ravanastra, ravanastron deb ham yuritiladi. Sozning kosaxonasi yog'ochdan o'yilib, ilon terisi bilan qoplanadi. Mazkur soz asosan hind xonandasiga jo'rnavoz sifatida foydalaniladi. Bizdagi g'ijjak shaklida bo'lgan bu cholg'uga ipak yoki ichakdan qilingan ikkita tor bog'langan. Ravanastr cholg'usi g'ijjakka o'xshab ijro etiladi.



SARANGI

Sarangi - hind kamonli cholg'ular turkumiga mansub bo'lib, kamoncha bilan ijro etiladi. Sarangi cholg'u sozida asosan qo'shiqchiga jo'rnavozlikda ko'p foydalaniladi. Sarangi sozi - malum bir cholg'uchining bo'y-bastiga, qad-qomatiga qarab yasaladi. Sarangining uzimligi 100-120 santimetr kengligi 6 inch, og'irligi 2 kg gacha bo'ladi. Katta Sarangilarda 35 dan 39 tagacha torlar, kichik sarangilarda esa 25 tacha tor mavjud bo'ladi. Sarangi sozining dastasi "tun" yoki "mango" daraxtidan yasaladi, kosasiga esa yosh echki terisidan qoplanadi. Torlari asosan ichakdan bo'lib, yuqorigi II ta va pastki 4 ta quloqqa taqiladi. Yuqorigi II ta rezonans torlari asosan ijro qilinadigan asarning toni doirasida diatonik sozlanib, sado berib turish uchun foydalanilsa, qolgan, 4 quloqqa berkitilgan torlar, asosan ijro qilinadigan torlar bo'lib


kvarta va kvintaga sozlanadi. Sarangi ijrochisi sozni ko'kragiga ushlab, o'zi chordana qurib o'tirgan holatda ijro qiladi. Sarangi sozi kamoning yoli - otning dumidan bo'lib, uning uzunligi 22 inchgacha bo'ladi. Manbalarda keltirilishicha, sarangi sozini yasovchi asl ustalar Hindistonning Agra shahria istio'omatlii qilishar ekan.



Sarangining surati

APXERTSA

Apxertsa - Abxaziya xalq torli cholg'usi bo'lib, kamon bilan ijro etiladi. Kosaxonasi o'yib ishlangan bo'lib, dastasi va bo'yni yog'ochdan yasaladi. Ikki tori ot dumidan tayyorlanadi. apxertsa qardosh qirg'iz xalq cholg'usi qiyAQ soziga o'xshab ketadi. Ovoz tembri juda sekin va mayin. Ijrochi odatda ashulachi bo'lib, o'z ovozigA cholg'usi bilan jo'r bo'ladi. apxertsaning uzunligi 70-80 *santimetrni* tashkil qiladi. Sozlanishi: 1-oktavada *do, sol* tovushlariga sozlanadi. Ikki torli apxersta sozi, asosan abxaz xonandasi o'z ijrosiga jo'rnavoz sifatida qo'llaniladi.




Apxertsaning surati

BANXU

Kamon bilan ijro etiladigan xitoy torli cholg'ularidan biri *banxu* bo'lib, u Xitoy sozi erhuga aynan o'xshab ketadi. Bu cholg'u faqatgina kamon bilan ijro etiladi. Banxuning kosaxonasi kakos yong'og'idan tayyorlanib, ustiga yupqa yog'och qoplanadi. Sozning uzunligi 70-75 santimetrni tashkil qiladi. Unda asosan ikkita tori


bo'lib, ikkinchi oktava *re* va *lya* tovushlariga sozlanadi. Banxu cholg'usining diapazoni (ovoz hajmi) ikkinchi oktava *re* tovushidan to'rtinchi oktava *mi* tovushiga qadar bo'ladi.



Banxuning surati

VIOLONCHEL


Violonchel (italyancha violoncello, violone - kontrabas so'zidan olingan bo'lib, kichraytirilgan degan ma'noni bildiradi) - skripka turiga kiradigan, torli kamonli cholg'u. Violonchel XVI asrning birinchi yarmidan qo'llanila boshlangan. Uning to'rtta tori mavjud bo'lib, skripkaga o'xshab kvinta oralig'ida sozlanadi. Violonchel stulda o'tirib, uchida ingichka shpil (tayoqchasini) polga tirab ijro etiladi] XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar Violonchelga o'rnatilgan bu tayoqcha bo'lmagan. Violonchel tovushi yo'g'on bas va tenor registrida bo'ladi. Violonchelning torlari katta oktava *do*, *sol* va kichik oktava *re*, *lya* tovushlariga sozlanadi. Ovoz hajmi katta oktava *do* tovushidan - to'rtinchi oktava *mi* tovushiga qadar bo'ladi. Violonchelning nota yozuvlari bas, skripka va tenor kalitlarida yoziladi. Violonchelning tovush tembri juda shirali va muloyim eshitiladi.



Violonchelning surati

GUDOK


Gudok - kamon bilan ijro qilinadigan rus xalq cholg'usi. G'ijjak ijrochiligi singari o'tirib, tizzaga tik holatda qo'yib, kamon bilan ijro etiladi. Unda rus xalq qo'shiqlari, xor jamoalariga jo'rnavozlik qilganligini hamda rus xalq ansambllari tarkibida ishtirok etganligini uchratish mumkin. Gudok sozining uch tori bo'lib, birinchisi asosan ijro qilinadigan tor hisoblanadi, qolganlari birinchi torga kvinta oralig'ida unison tarzda sozlanadi. Ikkinchi unison torlar birinchi torga faqatgina ochiq holatda jo'r bo'lib turish uchun foydalaniladi. Gudoklarni rus xalq ansambllariga jo'r bo'lganida - turli ovoz hajmidagi va turlicha ko'rinishlarda uchratish mumkin.



Gudokning surati

DIGA

Diga - latish xalq cholg'usi bo'lib, kamon bilan ijro qiliyadi. Digalarning ilk ko'rinishlari bitta torli bo'lgan. Qayta ishlangan digalarda yana 2 ta tor qo'shilgan. Diga sozining ko'rinishi to'g'ri burchakli ko'rinishda bo'lib, bunda pardalar mavjud.




Diganing surati

QOBIZ

Qobiz - kamon bilan ijro qilinadigan qozoq xalq torlili cholg'ularidan bo'lib, qovuz deb ham yuritiladi. Kosaxonsi yog'ochdan o'yib ishlangan bo'lib, pastki qismiga tuyaniniv' terisidan qoplanadi. Qobizning ot yolidan tayyorlangan 2 ta tori kvarta yoki kvinta oralig'ida sozlanadi. Barmoqlar dastaga tegib qolmaslik maqsadida kosa va dasta egik holatda ishlangan. Shu sababli qobizning tovushi do'ng'illagan holatda


eshiriladi. Sozning umumiy uzunligi 70-80 santimetr atrofida bo'ladi. Qobizning diapazoni ikki oktava oralig'ida bo'ladi. Xalq cholg'u orkestri tarkibini kengaytirish maqsadida qobizlarning turlari ta'sis qilindi.



Qobizning surati

BAS QOBIZ


Bas qobiz - kamon bilan ijro qilinadigan qozoq xalq cholg'usi. Qobizning uch, to'rt marta katta qilib ishlangan turi. Bas qobiz dastasi kosasi bilan butun yog'ochdan ishlanmay, alohida ishlanadi. Tovushi to'la, kuchli, altga nisbatan birmuncha past (yo'g'on). Bas qobizda ichakdan yasalgan 4 ta tor bo'lib, kvinta oralig'ida, katta oktavadagi *do*, *sol* va kichik oktavadagi *re*, *lyaga* sozlanadi. notalar bas kalitida yoziladi. Umumiy ovoz hajmi katta oktavadagi *do dan* birinchi oktavadagi *solga* qadar.



Bas qobizning surati

ALT QOBIZ


Alt qobiz - torli-kamonli qozoq xalq cholg'usi. Qobizning biroz kattaroq qilinib, qayta ishlangan turi. Alt qobizdagi 3 ta tor kvinta oralig'ida kichik oktavadagi *do*, *sol* va birinchi oktavadagi *re* tovushlariga sozlanadi. Alt qobizning umumiy ovoz hajmi kichik oktavadagi *do* tovushidan ikkinchi oktava *re* tovushiga qadar davom etadi. Notalar alt kalitida yoziladi.



Alt qobizning surati

KONTRABAS QOBIZ

Kontrabas qobiz - qozoq xalq sozlari turiga mansub bo'lib, qobizlar takomillashtirilganidan keyin joriy qilingan. Qozoq xalq orkestrida kamon bilan ijro qilinadigan torli sozlar orasida hajmi jihatdan eng katta cholg'u sanaladi. Qobizlar guruhiga mansub Kontrabas qobiz simfonik orkestrlar va qozoq xalq cholg'ulari orkestrida tik turgan holatda ijro qilinadi. Sozning 4 tori bo'lib kvarta oralig'ida sozlanadi. Kontrabas qobizning umumiy ovoz hajmi kontroktavadagi *mi* tovushidan, kichik oktavadagi sol tovushiga qadar davom etadi. Kontrabas qobiz notalari yozilishidan bir oktava past eshitiladi.




Kontrabas qobizning surati

GADULKA

(g'dulka)

Gadulka kamon bilan ijro qilinadigan bolgarlarning torli xalq cholg'usi bo'lib, ular g'dulka deb ataydi. G'dulkada asosan 3 yoki 4 asosiy torlari bo'lib, qolgan 10 ga yaqin torlar sado (rezonans) beruvchi qo'shimcha torlar hisoblanadi. Gadulka sozi nok shaklida bo'lib, qopqog'ida tovush beruvchi uzun teshikchasi bor. Gadulkaga qo'yilgan xarak uzun bo'lib, uning kalta oyoqchasi qopqoqqa, uzun qismi esa qopqoq tagidan rezonans beruvchi teshikka keladi. Ijro qilish vaqtida g'dulkani tikka ushlab, barmoq


tirnoqlari bilan tor sekin chalinadi, shunga ko'ra g'dulka flajolet tembrida tovush beradi.



Gadulkaning surati

KONTRABAS

Kontrabas - kamonli cholg'u laming eng kattasi bo'lib, uning uzunligi salkam ikki metrni tashkil qiladi. Kontrabasda 4 tor bolib .kvarta oralig'ida sozlanadi. Birinchi va ikkinchi torlari kontroktavaning *mi* va *lya* tovushlariga, uchinchi va to'rtinchi torlari esa, katta oktavaning *Re* va *sol* tovushlariga sozlanadi. Ovoz hajmi kontroktava *mi* tovushidan - birinchi oktava *mi* tovushiga qadar davom etadi. Mazkur cholg'u asosan simfonik va xalq cholg'ular orkestrlarida ishtiroki ko'proq ko'zga tashlanadi. Uning yakka holda ijrosi juda kam qo'llaniladi.



Kontrabasning surati

KIYAK


Kiyak - kamon bilan ijro qilinadigan qirg'iz xalq torii cholg'usi. Uning ko'rinishi bizga qozoq qo'bizini eslaiadi. Kiyak cholg'u sozida ikkita tor bo'lib, kvinta oralig'ida sozlanadi. 1-tori birinchi oktava *fa* tovushiga, 2-tori esa kichik oktava *si* tovushiga sozlanadi. Kiyakning umumiy uzunligi 60- 70 santimetr atrofida bo'ladi. Kiyakning kamoni otning yolidan tayyorlanadi. Ijro jarayonida esa, o'ng qo'l barmoqlari bilan

tarang tortib kiyak torlari ustida harakatlantiriladi. Qayta takomillashtirish natijasida kiyaklarning modernizatsiyalash- tirilgan; prima, al't, bas, kontrabas turlari amaliyotga joriy qilingan. Hozirda kiyak cholg'u sozi Qirg'iz xalq cholg'u orkestr va ansambllarida keng foydalaniladi.



REBAB


Rebab - kamon bilan ijro qilinadigan hind-eron torli cholg'ularidan biri sanaladi. Kosaxonasi ko'rib turganirizdek g'ijjak ko'rinishida ham uchraydi, kosaxonaga yupqa tori qoplanadi. Rebab cholg'usi; bir torli, ikki torli va uch torli bo'lib, kvarta va kvinta oralig'ida sozlanadi. Rebab Misr, Shimoliy va G'arbiy Afrika xalqlari o'rtasida keng tarqalgan.



SKRIPKA

Skripka (italyanchada violnio deb yuritiladi) - eng yuqori tovushlarga ega bo'lgan torli kamonli cholg'u hisoblanadi. Skripka XV-XVI asrlardan boshlab Italiyada qo'llanila boshlangan. XVII asrdan boshlab butun Yevropa musiqa olamiga keng tarqalgan. Skripkada to'rt tor mavjud bo'lib, kvinta oralig'ida sozlanadi. 4-tor kichik oktavadagi so!ga, 3-tor birinchi oktavadagi re tovushiga, 2-tor birinchi oktavadagi lya tovushiga, 1-tor esa ikkinchi oktavadagi mi tovushiga sozlanadi. Skripkaning ovoz hajmi kichik oktavadagi sol tovushidan - to'rtinchi oktava do tovushiga qadar davom


etadi. Tembri pastki tovushlarda yo'g'on, o'rta tovushlari mayin- yumshoq, yuqori tovushlari juda ochiq, ravshandir.



Skripkaning surati

SIGUDEK


Sigudek - komi xalqining uch torli cholg'usi bo'lib, tir nab va kamon bilan ijro qilinadi. Sigudek sozining umumiy uzunligi 70-80 santimetr atrofida bo'ladi. Sozanda cholg'uni o'tirgan holatda ijro etadi. Ko'p hollarda komi xalqi qo'shiqchilari o'z ovozlari jo'mavoz sifatida mazkur sozdan foydalanadilar.



Sigudekning surati

SIXU


Sixu - kamon bilan ijro qilinadigan xitoy torli cholg'usi. Ko'rib turganimizdek, g'ijjakka o'xshab ketadi. Sixu sozida 4 ta tor bo'lib, cholg'uning nomlanishi o'z nomidan kelib chiqqan. Xitoychada «si» - to'rt degan ma'noni anglatadi. Simlari ikkita tor sifatida e'tirof etilib, unison tarzda sozlanadi. Uning umumiy uzunligi 80-90 sm atrofida bo'ladi. Xitoy xalqi orasida u juda keng tarqalgan cholg'ulardan biri hisoblanadi.



Sixuning surati

XUCHIR


Xuchir - kamon bilan ijro qilinadigan mo'g'ul torli cholg'usi bo'lib, mo'g'ullarda *xuchir* deb yuritilgan. Xuchir sozining kosaxonasi silindr shaklida yoki ko'pburchakli shaklda bo'lib, kosaxonaga teri qoplanadi. Ikki juft ipak yoki metall torlar tortiladi. Bu torlar kvinta oralig'ida sozlanadi. Ovoz hajmi kichik oktava re tovushidan birinchi oktava re tovushiga qadar davom etadi. Xuchir cholg'usi turli xil o'lchamdagi, katta-kichik shakllarda bo'ladi



Xuchirning surati

SZINXU

Szinxu - kamon bilan ijro qilinadigan xitoy torli cholg'usi bo'lib, stzinxuning uzunligi yarim metr atrofida bo'ladi. Manbalarda keltirilishicha, bu sozni *erxuni xustin* deb ham atashgan. Szinxu erxudan faqat kichikligi bilan farq qiladi. Keyinchalik bu cholg'u Pekin musiqa dramasida asosiy soz bo'lib qolganidan so'ng stzinxu nomi bilan atalgan ekan.



Szinxuning surati

CHUNIRI


Chuniri - kamon bilan ijro qilinadigan gurji xalq torli cholg'usi. Chuniri sozida uchta tor bo'lib, torlar oralig'i, Tertsiya, sekunda va kvarta intervallariga sozlanadi. Chuniri xuddi g'ijjakka o'xshab o'tirgan holatda ijro qilinadi. Mazkur sozdan asosan ashula va raqslarga jo'mavozlikda foydalaniladi. Juda kam hollarda chuniri sozining yolg'iz ijrosi kuzatiladi.



Chunirining surati

ERXU


Erxu - Xitoyda eng ko'p qo'llaniladigan torli-kamonli cholg'ulardan biri bo'lib, orkestr, ansambl va yakka ijrolarda juda ko'p kuzatiladi. Erxu cholg'u sozining kosaxonasi olti burchakli shaklda bo'lib, ilon terisidan qoplanadi. Uning umumiy uzunligi 80-90 santimetrni tashkil qiladi. Unda ikkita tor mavjud bo'lib, turlicha sozlanadi. Keng qo'llaniladigan sozlanish bu kvarta sozi bo'lib, bu 1-oktava re va lya tovushlarini tashkil qilgan. Uning ovoz hajmi yuqoridagi sozlanishda 1- oktava re tovushidan 4-oktava re tovushiga qadar davom etadi.



Erxuning surati

BASETLYA


Basetlya - kamon bilan ijro qilinadigan belorus xalq torli cholg'usi. Basetlyaning tuzilish shaklan violonchel cholg'usiga o'xshab ketadi. Basetlya sozi ko'p hollarda belarus xalq cholg'u ansambllari tarkibida qo'llaniladi. Bu cholg'uning yakka ijrochilik uslubi juda kam hollarda qo'llaniladi.



Basetlyaning surati

VIOL D'AMUR


Viol d'amur - kamon bilan ijro qilinadigan torli cholg'u bo'lib, violalarning bir turi sanaladi. Viol d'amur cholg'usida 5 ta yoki 7 ta asosiy torlari bo'lib, 7 ta qo'shimcha tovush beruvchi torlar mavjud. Viol d'amurning asosiy torlari kichik oktavadagi *re*, *fa-diez*, *lya* tovushlariga, birinchi oktavadagi *re*, *fa-diez*, *lya* tovushlariga va ikkinchi oktavadagi *re* tovushlariga sozlanadi; Viol d'amur xuddi skripkadek yelkaga qo'yib chalinadi. uning tovushi yumshoq va mayin. U yakka cholg'u sifatida hamda simfonik orkestrlarda qo'llaniladi. Mazkur soz XVII-XVIII asrlardan boshlab keng iste'molga kirgan.



Viol d'amurning surati


CHAGANA

Chagana - kamon bilan ijro qilinadigan Dog'iston xalq torli cholg'usi. U ayrim ma'lumotlarda chagan deb ham nomlanadi. Chagananing ko'rinishi skripkaga o'xshab ketsada, biroq qopqoq o'rniga teri qoplangan holatlari ham uchraydi. Mazkur soz violonchelga o'xshab ijro qilinadi.



CHIANURI

Chianuri - kamon bilan ijro qilinadigan gurji xalq cholg'usi. Uning ko'rinishi bizning g'ijjak cholg'umizga o'xshab ketadi. Chianurida to'rtta tor bo'lib, kvarta oralig'ida sozlanadi. Chianuri sozi ko'pincha ashulaga jo'r bo'lishda foydalaniladi.




GUSLE

Gusle, guslya - torli-kamonli janubiy slavyan cholg'usi. "Kosa"si qo'buz shaklida o'yilgan bo'lib, qopqoq o'rniga teri qoplangan. 1-2 qil tori bor. Yoy shaklidagi kamoncha bilan chalinadi. Ijrochi gusleni chalganda chap qo'l barmoqlari bilan dastaga torni sekin bosadi. Gusle xalq ashulalariga, epik ashulalarga jo'r bo'ladi.



GENSLE

GENSLE kamonli polyak xalq cholg'usi. "Kosa"si bizdagi tanburga o'xshash o'yilgan bo'ladi yoki dutordek "qobirg'a"lardan tayyorlanadi. Genslening 3 yoki 2 tori kvinta oralig'ida sozlanadi. Ijro qilish vaqtida gensle gorizontol holda ushlab chalinadi.



Genslening surati

ARDANUCHI

Ardanuchi cholg'usi shaklan g'ijjakka o'xshaydi. Kamon bilan ijro etiladigan ajar xalq cholg'u asbobi. Ardanuchi sozida 3 ta tor bo'lib, ular sekunda va Tertsiya intervallariga sozlanadi.

ATUX-PANDUR

Atux pandur - kamon bilan ijro qilinadigan chechen- ingushlarning torli cholg'usidir. Atux-pandur sozining korpusi shar shaklida bo'lib, dastaga 3 ta tor biriktirilgan. Bular birinchi oktavadagi *re*, *mi* va *lya* tovushlariga sozlanadi. Cholg'uning umumiy uzunligi 80-85 santimetrni tashkil qiladi.

Basolya - kamon bilan ijro qilinadigan ukrain xalq torli cholg'ulari safiga kiruvchi mazkur sozning tuzilishi belarus basetlyasini eslatadi.

YEXU

Yexu - kamon bilan ijro qilinadigan xitoy torli cholg'usidir. Yexu sozining ko'rinishi bizning g'ijjak cholg'usiga o'xshab ketadi. Kosaxonasi o'miga kakos yong'og'idan foydalaniladi. Xitoyda kakos palmasini yexu deb atashar ekan.

LIRITSA

Liritisa - kamon bilan ijro qilinadigan yugoslav xalq torli cholg'ularidan hisoblanadi. Liritisa sozining ko'rinishi nok shaklida bo'lib, yog'ochdan yasaladi. Uning tekis yupqa qopqog'ida ovozni sadolantirib turuvchi ikkita rezonator teshiklari mavjud. Liritisa sozida uchta tor bo'lib, birinchi tori 2- oktava *re* tovushiga, ikkinchi tori 1-

oktava *hja* tovushiga, uchinchi tori esa 2-oktava *mi* tovushlariga sozlanadi. Liritsa cholg'usida ko'proq raqsga jo'r bo'lishda foydalaniladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon shahri mashhur cholg'uchilar to'plangan markazga aylangan edi. Bu yerda Usta Xudoyberdi rahbarligida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik maktabini o'rganish bo'yicha o'ziga xos maktab yaratildi. Farg'ona cholg'ulari buxorocha shashmaqomni faol o'zlashtira boshladi. Ota - Jaloliddin Nosirov (1845-1928) maqom ijrochisi, taniqli o'qituvchi, cholg'uchi, usta tanburchi edi. U dastlab musiqa ilmini onasidan o'rgandi, so'ngra maqomlarning zukko bilimdoni va mohir ijrochisi bo'lgan otasidan ta'lim oldi. Ota-Jalol Nosirov uzoq yillar mobaynida Amir Olimxon (Buxoro), Amir Muzaffarxon (Shahrisabz)," Amir Otajonlar (Karmana, hozirda Navoiy)lar saroyida o'zbek xalq cholg'ulari ansamblining doimiy rahbari va xonandasi bo'lgan. Ota G'iyos Abdug'ani (1858-1924) o'zbek musiqasining bilimdoni, buxorolik tanburchi edi. U Shashmaqomning Mushkulot qismini yaxshi bilgan va har bir maqomni unga xos usul va xususiyatlarni saqlab qolgan holda ijro etgan.

Xoji Abdulaziz Rasulev (1852-1936) o'zbek va tojik musiqasining taniqli ijrochilaridan biri, mohir tanburchi Hoji Raximqulning shogirdi. 1888 yilda Buxoroga bordi. U yerda Ota-Jaloliddin Nazirov raxbarligi ostida bir yil ichida Shashmaqomni mukammal o'rgandi. A.Rasulov Farg'ona, Samarqand, Toshkent shaharlarida o'zbek xalq musiqasi va maqomlarini faol targ'ib qildi. U o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi rivojiga tanburchi, dutorchi va xonanda sifatida salmoqli hissa ko'shib, xalq va musiqa jamoatchiligining mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi.

Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan musiqachi-cholg'uchilar o'z ijodiy yo'lini boshlab o'z davrida ijodiy kamolotga yetdilar. Ular hammasi ma'rifatchilar, yosh musiqachilarning ustozlari edilar. Ularning pedagogik karashlari, ta'limotlari o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha yangi pedagogik hayotiy manba bo'lib, o'lmas meros sifatida saqlanmoqda.

1917-1945 yillarda ijrochilik san'atining taraqqiyoti

1917 yildan keyin o'zbek musiqa san'ati jadal va jo'shqin taraqqiy qila boshladi.

Birinchi o'n yillikdayoq musiqa ta'limi, fol'klorshunoslik, ijrochilik san'ati sohalarida muayyan yutuqlarga erishildi.

Musiqa o'quv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasi (1918) va uning Samarqanddagi, Farg'onadagi (1919), Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o'zbek xalq cholg'ularini hamda ba'zi Ovrupacha musiqa cholg'ulari (fortepiano, skripka va damli cholg'ulari) ni chalish o'rgatilar edi. Bu musiqa bilim yurtlari tom ma'nodagi konservatoriya bo'lmasa-da, biroq, o'tgan davr musiqa madaniyati ilmini o'rganish imkoniga ega bo'lmaganlarga sodda musiqa nazariy ilmi hamda ijro san'atida saboq berilar edi. Shu tufayli yosh respublikaning ko'pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloch yoydi.

O'zbek san'atining asoschisi, dramaturg, bastakor, muallim, jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy musiqa san'ati rivojiga katta xissa qo'shdi.

1917 yilgacha bo'lgan davrdagi xalq musikachi va ijrochilari yaratgan an'analar cholg'ularning keyingi avlodi ijodida tarkib topdi va davom etdi. Musiqachi-ijrochilar qayta tuzilgan madaniy-ma'rifiy tashkilotlarda ishga kirishib ketdi.

Taniqli tanburchi va xonanda Shorahim Shoumarov 1919 yilda Toshkentdagi «Namuna» maktab-internati qoshida xalq cholg'ulari ansamblini tuzdi. Bu ansambl keyinchalik Toshkent musiqa texnikumini tashkil qilish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

20-yillarda o'kuv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarda «Ko'k ko'ylak», «San'atchi qizlar», «Sanoyi nafisa» kabi musiqiy jamoalar tuzildi. Tashkil qilingan ijodiy jamoalar tarkibida naychi, changchi, dutorchi, tanburchi, g'ijjakchi, doirachi, nog'arachilar va qashqar rubob sozandalari bo'lgan xalq cholg'ulari ansamblari ham bor edi.

Xalq cholg'ulari ansamblari Farg'onada, Andijonda, Samarqanda ham tuziladi. Ularga mashhur cholg'uchilar usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Ahmadjon Umirzoqov, Yusufjon Shakarjonov, usta Ro'zmat Isaboyev, Matyusuf Xarratov, Usta Toyir Marufjon Toshpulatov, Muhiddin Mavlonovlar rahbarlik qilishgan. Ularning samarali ijodi tufayli, o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atidan ko'pchilik bahramand bo'ldi.

1936 yilda Moskvada bo‘ladigan dekada munosabati bilan Qori Yoqubovga Davlat filarmoniyasini tuzish topshiriladi, u filarmoniyaning birinchi direktori etib tayinlanadi. Qori Yoqubovning va boshqa musiqa san’ati arboblarning qat’iyligi tufayli, Toshkent Davlat Konservatoriyasini tuzish xaqida qaror qabul qilinadi.

O‘zbek xalq musiqasi an’alarining davomchisi, toshkentlik mohir xalq cholg‘uchisi-dutorchi, tanburchi, naychi Yunus Rajabiyning (1897-1976) ijodiy faoliyatiga ma’rifatparvarlik keng musiqiy-ijtimoiy xususiyatlar xos edi. Besh jildlik o‘zbek xalq musiqasini yozib olib, nashrga tayyorlaganligi Yunus Rajabiyning ko‘p yillik ijodiy faoliyatining eng ajoyib samarasi bo‘ldi.

1927 yili Yunus Rajabiy O‘zbekiston radio qo‘mitasi qoshida 12 cholg‘uvchi (xonanda va sozandalar) dan iborat xalq cholg‘ulari milliy ansambli tashkil etadi. Bu ansamblga u Toshkentdagi o‘sha paytda mashhur musiqachilar - qo‘shnaychi Xayrulla Ubaydullayev, dutorchilar Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajapov, Mahsudxo‘ja Yusupov, g‘ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, Mahmud Yusupov, naychilar Dadaali Soatqulov, Said Kalonov, changchilar Nigmatjon Do‘stmuhammedov, Faxriddin Sodiqov, Mahamatjon Rasulov, doirachi Dadaxo‘ja Sottiyevlarni jalb etdi. Ansambl repertuarida o‘zbek xalq kuylari bilan bir qatorda zamonaviy bastakor, shu jumladan Yunus Rajabiyning «Chorgoh», «Ko‘chabog‘i», «Bayot», «Birlashingiz», «Fabrika», «G‘alaba», «Hammamiz», «Ilg‘or», «Mirzadavlat» kabi asarlari bor edi. Keyinroq bu ansamblida respublikaning mashhur xonandalari toshkentlik Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, buxorolik domla Halim Ibodov, samarqandlik dutorchi va xonanda hoji Abdurahmon Umarov, xorazmlik tanburchi va xonandalar Matyoqub Xarratov, Safo Mugoniy, Toshkentlik Nazira Axmedova kabi san’atkorlar ishlagan. Ayni paytda ansamblning ijrochilik repertuari «Shashmaqom»ning mushkulot va nasr qismlari: «Nasurulloi», «Navro‘zi Sabo», «Talqini ushoq», «Sarvinozi talqincha», shuningdek, bastakorlarning «Uyg‘oning», «Bizning qishloq», «Yashasin», «Kolxozimiz» kabi asarlar hisobiga kengaydi.

1930 yilda Toshkent musiqa oliy maktabi, 1936 yilda esa uning asosida O‘rta

Osiyoda birinchi musiqa oliy o'quv yurti - Toshkent Davlat konservatoriyasi ochildi.

1936-1937 o'quv yili xalq cholg'ularida ijrochilik sohasida musiqiy ta'lim rivoji uchun juda muhim davr bo'ldi. Aynan shu davrda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida A.I.Petrosyans tashabbusi bilan Y.Rajabiy, A.Daroshev, A.Mansurov, B.Giyenko, N.Krestyanin, V.Marsinkovskiy, A.Maxsudov, O.Qosimov kabi o'qituvchilar umummaqbul nota sistemasi asosida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha saboq bera boshladilar. Sh.Shoakramov, A.G'ofurov, M.Yunusov (chang), S.Yuldoshov, G.Qodirov (tanbur), A.Ilyosov, M. A'zamov kabilar ularning birinchi o'quvchilardan bo'lishdi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyatining o'sishi, jahon klassik bastakorlari asarlarining o'zlashtirilishi, O'zbekiston bastakorlarining xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'ldi. Shu bilan birga, yuqori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni puxta va mukammal qilib tayyorlash masalasini ham kun tartibiga qo'ydi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilikning keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent konservatoriyasining faoliyati bilan chambarchas bog'langan.

1948 yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan; M.Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasida ham xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha ta'lim berish boshlandi.

O'zbek xalq cholg'ulari bo'limiga (orkestr fakulteti tarkibida) rahbarlik qilish, o'quvchilarni saralab yig'ish, o'quv rejalarini tuzish A. I. Petrosyans tomonidan amalga oshirildi. Toshkent Davlat konservatoriyasida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha professional ta'limni yo'lga qo'yishda V. A. Uspenskiy, M.A.Ashrafiy, A.I.Petrosyans, I.P.Blagoveshchenskiy, B.F.Giyenko, G.G.Sobitovlar katta rol o'ynashdi.

1948-49 yillardagi birinchi o'quv yilida konservatoriyaga O'zbekiston Davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrining 13 cholg'uchisi o'qishga qabul qilindi.

Shulardan 10 kishi: Nazir Nigmatov (qo'shnay), Abbos Bahromov, Aleksandr Yevdokimov (prima-rubob), La'li Sultonova, Mirzayev, Buriboy Mirzaahmedov (qashqar), Mahamatjon Asilov, Obid Xolmuhamedov (g'ijjak), Anvar Liviye (doyra) 1-kursga qabul qilindi. Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining bitiruvchilari Axmadjon Odilov (chang), Valentina Borisenko (prima rubobi), Feoktist Vasilyevlar (qashqar rubobi) esa 2-kursga qabul qilindi.

Muhammadjon Mirzayev (1913 yilda tug'ilgan) -respublikadagi rubobchilarning eng mashhuri, kuychi-bastakori. Konservatoriyaning qashqar rubobi sinfidagi A.I.Petrosyans raxbarligida tamomlagan. 1951 yildan filarmoniya orkestrida ishlash bilan bir qatorda, o'zbek xalq musiqa merosini o'rganish bo'yicha yosh ijrochilarga murabbiylik qilib kelgan. Xalq artistlari X.Mavlonova, M.Turg'unboyevalar bilan ijodiy hamkorlikda «Bahor valsi», «Yangi tanovar», «Gulnoz», «Dilbar», «Gulxumor», «Dildor» kabi lirik qo'shiqli raqs kuylarini yaratgan. U yaratgan qo'shiqlar orasida «Shirmonoy», «Oltin sandiq», «Uch dugonalar» ayniqsa mashhurdir. M.Mirzayev O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi a'zosi va bir qancha mukofotlar sohibi. Rubob ijrochiligida (keyinroq yosh ijrochilar tomonidan rivojlantirilgan) hissiy va yorqin uslub asosini yaratgan dastlabki rubobchilardan hisoblanadi.

Mirza Hakimovich Toirov (1930 yilda tug'ilgan). Konservatoriyaning nay ixtisosligi bo'yicha tamomlagan dastlabki bitiruvchilardan biri (1956). U o'z ustozlari A.I.Petrosyans bilan hamkorlikda «Nay maktabi» o'quv qo'llanmasini yaratgan. Ushbu qo'llanma O'zbekistondagi barcha musiqa bilim yurtlarida, shu bilan birga, qo'shni respublikalarda ham nay sinflarining ochilishiga imkon yaratdi. M.Toirov 1957 yildan ijrochilik kafedrasida avval o'qituvchi, so'ngra dotsent bo'lib ishlagan. Ayni bir paytda T.Jalilov nomidagi xalq cholg'ulari orkestrida ham ishtirok etgan. M.Toirov musiqa ijrochilari Butunittifoq konkursining (1957) hamda Yoshlar va o'quvchilarning VI jahon festivalining sovrindori (1957), Moskva, Estoniya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikistonda bo'lib o'tgan o'zbek san'ati dekadalarida qatnashgan. M.Toirov bir necha iste'dodli naychilarni tarbiyalab kamol toptirgan. Uning

I.Qosimov, O.Azizov, Sh.Ahmadjonov, R.Xolmirzayev, K.Yusupov, A.Abdurashidov kabi shogirdlari respublika ko'riklarining sovrindori bo'lishgan. M.Toirov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1969). U 1987 yildan konservatoriyaning professoridir.

Fozil Matyusupovich Xarratov (1926-1971) taniqli changchilardan biri edi. Musiqa bilimi va ijrochilik ilk sabog'ini o'z otasi, mashhur changchi Matyusuf Xarratovdan oldi. Otasi (M.Xarratov) farzandining istagiga ko'ra, unga yarim xromatik tovush qatoriga mansub yangi chang yasab beradi. 1942 yilda F.Xarratovlarning oilasi Toshkentga ko'chib keladi. Fozil bu yerda avval Toshkent davlat sirkining aralash musiqa ansamblida ishlaydi. U 1950-55 yillarda Toshkent Davlat konservatoriyasida A.Odilovning chang cholg'usi sinfida o'qiydi. Keyin bir oz vaqt konservatoriyada dars beradi. Uning shogirdlari orasida G.Ne'matov, F.Shukurova, T.Xo'jamberdiyev kabi taniqli ijrochilar bor. F.Xarratov Moskvada bo'lib o'tgan Yoshlar va o'quvchilarning VI Jahon festivalining sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1964). U «Hurmat Belgisi» ordeni bilan mukofotlangan.

Feoktist Nikiforovich Vasilyev (1919—1987) dastlabki professional qashqar rubobi ijrochilaridan biridir. U 1937 yilda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1938 yildan O'zbekiston filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrining cholg'uchisi edi. Ulug' Vatan urushi yillarida Turkiston harbiy okrugining ashula va raqs ansamblida ishlagan. Konservatoriyaning qashqar rubobi sinfi bo'yicha A.I.Petrosyans rahbarligida tamomlagan (1952). 1949 yildan konservatoriyada qashqar rubobi, dutor, tanbur ixtisosligi bo'yicha dars bergan. S.Taxalov, A.Boboxonov, G.Ergashev, T.Rajabov, Q.Usmonov kabi mashhur rubobchilar uning qo'l ostida tarbiyalanganlar. Feoktist Nikiforovich o'zining ilmiy-metodik ishlarida («Rubob maktabi» darsligi) «qashqar rubobi uchun etyud va mashqlar» rubob chalishni o'rganish bo'yicha sistemali o'qitish metodini ishlab chiqdi. 1983 yildan F.Vasilyev professor vazifasini bajaruvchi bo'lib ishlagan edi.

Feoktist Nikiforovichning nomi o'zbek musiqa madaniyati hamda 40 yilga yaqin murabbiy bo'lib xizmat qilgan Toshkent konservatoriyasi bilan

chambarchas bog‘liq.

Valentina Yakovlevna Borisenko (1919—1990) o‘zining ijodiy yo‘lini O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi xalq cholg‘ulari orkestrida cholg‘uvchi bo‘lib boshladi (1939). Prima rubobi ixtisosligida ijrochi va o‘qituvchi sifatida tanildi. Hamza nomidagi musiqa bilim yurtini tugatgach (1948), Borisenko orkestrning torli-noxunli cholg‘ular guruhida konsertmeyster bo‘lib ishladi. Konservatoriyaning prima rubobi ixtisosligi bo‘yicha I.G.Blagoveshchenskiy rahbarligida tamomladi (1952). So‘ngra orkestrda ishlashni davom ettirdi. Ayni chog‘da u 1950 yildan Toshkent konservatoriyasida o‘qituvchi, 1962 yildan esa xalq cholg‘ulari kafedrasining dotsenti bo‘lib ishladi. Borisenkoning mashhur shogirdlari orasida A.Malikov, G.Salayeva (Obidova), B.Yo‘ldoshev, M.Rahimov, B.Azimov, Sh.Janaydarov, A.Dadamuhamedov kabi ijrochilar bor.

Sulaymon Maniyevich Taxalov (1942 yilda tug‘ilgan) ajoyib ijro texnikasiga va alohida tovush jozibasiga ega bo‘lgan, an‘anaviy va akademik ijro usulini birdek mukammal egallagan rubobchilardandir. Konservatoriyada o‘qishni tugatgach, F.N.Vasilyev sinfida (1958) qashqar va afg‘on ruboblari hamda tanbur ixtisosliklari bo‘yicha saboq berdi. S.Taxalov Moskvada bo‘lib o‘tgan Yoshlar va o‘quvchilarning VI Jahon festivalida ishtirok etgan (1957). U xalq cholg‘ulari ijrochilari Butunittifoq konkursining o‘zbek xalq musiqasi nota yozuvi va tavsifini takomillashtirish sohasida katta ilmiy-tadqiqot ishlarining sohibi. U «Afg‘on rubobini, chalishni o‘rgatish metodikasi asoslari» nomli o‘quv qo‘llanma muallifidir. S.Taxalov 1985 yildan dotsent, 1988 yildan esa san‘atshunoslik fanlari doktori, professor.

Abdusalom Malikovich Malikov (1939—1979). Dotsent vazifasini bajaruvchi bo‘lib xizmat qilgan. A.Malikovning rubob-prima ixtisosligi bo‘yicha 60—65-yillarda konservatoriyada V.Y.Borisenko rahbarligida olib borgan ijodiy faoliyati alohida e‘tiborga loyiq. U 1967 yildan xalq cholg‘ulari ijrochilik kafedrasida ishlagan. I Respublika ko‘rik-tanlovining sohibi (1971).

G‘ulomqodir Ergashevich Ergashev (1946 yilda tug‘ilgan). Toshkent konservatoriyasining sobiq o‘quvchisi (1969). F.N.Vasilyevning shogirdi, afg‘on

rubobi ijrochisi, turli xil dasturlar bilan tez-tez konsertlarda qatnashib turadi. 1967 yildan TDKsida o'qituvchi, 1988 yildan kafedra dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.

II bob Kamonchali cholg'ularning takomillashuvi va musiqiy ta'limda tutgan o'rni

2.1 G'ijjak chog'u asbobi oilasi

O'zbek xalqi jahon musiqa xazinasiga o'zining milliy musiqalari bilan munosib hissa qushib kelayotgan o'ziga xos san'atsevar xalqdir. Vatanimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab yosh avlod istedodini har tomonlama yangi mazmun bilan boyitish, ularni istedodlariga keng imkoniyatlar yaratish, ularni milliy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, ajdodlarimiz qoldirgan ulug' va betakror merosning munosib davomchilari etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shu o'rinda musiqa san'atimizning ham rivojlanishi shaxdam qadamlar bilan ilgarilab borayotganining guvohimiz. Madaniy me'rosimiz tarkibida alohida o'rin tutgan musiqa san'atini har tomonlama o'rganish musiqa sohasida tahsil olayotgan yoshlarimizning asosiy burchlaridan biridir.

Cholg'u asboblari ijrochilik tarixidan

O'zbek xalq cholg'u asboblari yaratilish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Birinchi musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi X ming yillikda yaratilgan deb taxmin qilinadi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda xalq cholg'ulari urma, zarbli cholg'ular, keyinchalik shovqinli cholg'ular vaqt o'tishi bilan naysimon, xushtaksimon shaqqildoqlar surnay va nay qamishdan va bambuqdan yasali ijroda qullanila boshlagan. Vaqt o'tishi bilan asta sekin torli - mizrobli va torli kamonchali, musiqa cholg'ulari paydo bo'lgan. Tarixning dalolat berishicha O'rta asir Sharq madaniyatida shakillangan cholg'u sozlar surnay, nay, dutor, tambur, g'ijjak, rubob, ud, do'mbra va boshqa sozlar bizgacha yetib kelgan keng xalq ommasi orasida dutorchilar,

doirachilar, surnaychilar, naychilar, rubobchilar, g'ijjakchilar, tamburchilar, ansambllar tanila boshlaganlar:

Asrlar osha yillar davomida ansambllar tashkil topib mashxur sozanda va xonandalar ko'payib, xalq orasida mashhur bo'lib ko'plab professional musiqa jamoalari markazlarda viloyat va tumanlarda o'nlab, yuzlab cholg'uchilar, ansambllar tashkil yetildi.

O'zbekiston mustaqilligi san'atni jumladan mo'siqa san'atini keng rivojlanishi uchun milliy mo'siqiy qadriyatlarimizni tiklash jaxon musiqa madaniyatini durdonalaridan bahramand bo'lishi va milliy musiqa madaniyatimizni butun jahonga tanitish bo'lajak musiqa o'qituvchilarimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri ansambil mashg'ulotlari jarayonida san'at sirlarini yanada chuqurroq o'rganish ijrochilik mahoratini puxta yegallash va ayni vaqitda musiqa san'ati orqali o'quvchi yoshlarni dunyo qarashlari va ma'naviyatlarini o'stirish ommaviy madaniyatni salbiy oqibatlaridan saqlash ular ongini milliy istiqlol g'oyasini shakillantirish o'z vatanini, milliy musiqa madaniyatini sevuvchi, vatanimiz ravnaqi uchun astoydil xizmat qiluvchi vatanparvar insonlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Ishning shakllari va uslublari

Ushbu uslubiy qo'llanmadagi asarlarni ijro yetishni tashkillashtirishda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyati namayon bo'ladi. O'qish o'rganish jarayonini tashkil yetishda cholg'u asbobini aniq va toza sozlash asarlarni cholg'uchi cholg'uda alohida-alohida o'rganish ko'nikma hosil qilganidan so'ng birgalikda ijro yetish maqsadga muvofiq.

O'rgatishning yakka tartibli shakli to'g'ri o'rgatish usuli mashg'ulotning aniq mazmuniga katta e'tibor berishga intanatsiya tozaligicha, kamonlarning to'g'ri tortilishiga. U differinsial yondoshuvga asoslangan bilim faoliyatini faollashtirishga imkon yaratadi. O'rgatishning yakka tartibli shaklida o'qituvchi bilan o'quvchi o'zoro muloqoti ancha kengayadi, bu esa o'z navbatida mashg'ulot samarasini oshiradi. Ansambl bo'lib ijro etish ijodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Ansambl guruhli mashg'ulot shakli bo'lib tashkil etilgan guruh ijrochilarni ijro imkoniyatlarini

sozlarning aniq va toza sozlanishi. Dars jarayonida ijro uslublarini to'g'ri tanlash turli mashqlar, shtrixlar tovush hosil qilish usullari, musiqa nazariyasi bilimiga ega bo'lish ansambl partiyalarini yozib olib alohida mustaqil shug'ullanish, ijrochilar bir birlarini diqqat bilan eshitish, ansambl partiyalarini yod olish.

Guruhli o'rganish unison va ko'p ovozli ijroning qo'shilishi, birgalikda ijro etish o'qituvchi va ijrochidan o'tkir o'qituvchilik zehinni taqqoza etadi. Ansambl ijrosi bir turdagi cholg'ular yoki ko'p turdagi cholg'ular birgalikda ijrosini nazarda tutadi. Cholg'uchilarning har biri yakkanovoz va jo'rnovozlikda ijro eta olish kerak. Yakka va guruhli shaklda jamoa shakli asosiy hisoblanadi. Jamoa orkestr ansambl ijrosi imkoniyatlari yakka va guruhli mashg'ulotlarda qatnashuvchi cholg'uchilar tomonidan yig'ilgan bilim va ko'nikmalar majmuasi mujassamlashgan. U musiqiy asar ustida doimiy mashg'ulot olib borish intonatsiyaga etibor berib ijro etish kerakligini taqqoza etadi.

Cholg'ularni toza intonatsiyada sozlash

Ansambl birgalikda ijrosida har bir partiyani o'rganish

Ansambl partiyalari ijrosida yakkanovoz va jo'rnovoz bir xillikda yerishish.

Ansambl birgalikda ijro madaniyatini takomillashtirish

Har bir ansambl qatnashchisining havaskor jamoaning g'oyaviy badiiy vazifalarini amalga oshirishdagi ma'suliyatni his qilish.

Ansamblidagi har bir cholg'u jamoa bo'lib ijro yetishda bir birini to'ldiradi.

O'zbek xalqining musiqa amaliyotida qadimdan cholg'u asboblarda yakkaxon va jamoa bo'lib ijro etish shakllangan. Qadimda ayniqsa ikki turi mavjud bo'lib birinchisi saroylardagi tantanali bazmlarda harbiy yurishlarda ijro yetilgan.

Saroydagi tantanali bazmlarda ijro yetiladigan cholg'ular, tanbur, dutor, nay, rubob, g'ijjak, surnay, chang ud kabi cholg'u asboblari qo'llanilgan. Harbiy yurishlarda tantana bazmlarda qo'llanilgan doira, litavra, nog'ora, karnay, surnay kabi cholg'ular birgalikda ijro etishgan. Ushbu ansambllar ochiq havoda maydonlarda ko'chalarda xalq an'anaviy bayramlarda to'y hashamlarda qo'llanilgan.

G'UJJAK CHOLG'USI HAQIDA

O'zbek xalq cholg'ulari an'analarga boy bo'lib, uning kelib chiqishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonning hozirgi hududida arxeologik qazish jarayonida topilgan musiqa asboblari va ijrochilarning tasviri tushirilgan juda ko'p moddiy-madaniy yodgorliklar bunga dalil bo'ladi.

G'ijjak azaldan xalqimizning sevimli cholg'ularidan hisoblangan. Uning kelib chiqishi X-XI asrlarga to'g'ri keladi. Bu xususan qiziqarli ma'lumot bor. «Ziynat al - majolis» (Ziynatlarning majlisi) antalogiyasida hikoya qilinishicha, Farobiy Ray shahrida Sohib ibn Abbod qabulida bo'lganida, vazir sharafiga o'tkazilgan ziyofatda o'zi ixtiro qilgan cholg'uda kuy ijro etadi. Tashqi ko'rinishidan kichik qovoqqa o'xshagan bu soz «g'ipchak» nomi bilan tanilgan ekan. Bu cholg'uda Farobiy uch qismli kuy ijro etib, tinglovchilarni ham yig'latgan, ham kuldirgan va hayajonga solgan ekan. G'ijjak avval ikki torli, Bobur zamonidan uch torli cholg'u bo'lgan. «Boburnoma»da aytilishicha, o'z davrining mashhur sozandasi Qulmuhammad Udiy g'ijjakka uchinchi torni tortib, yuqori ijrochilik mahoratini namoyish etgan.

Darvesh Alining risolasida ko'pgina g'ijjakchilar qatori Ustod Zaytuniy G'ijjakiy haqida qimmatli ma'lumot bor. U tengi yo'q g'ijjakchi bo'lib, maqomning turli pardalarida chiroyli kuylar - peshravlar bastalagan. Ayniqsa, saqil usulidagi Husayniy maqomi ohanglarida yaratilgan peshrav (oldinga intiluvchi) barchani hayratga solgan ekan .

G'ijjak odatda o'rik, tut yoki yong'oq daraxti g'o'lasidan ishlanadi. Kosasi asosan baliq terisi bilan qoplangan bo'lib, dastasida pardalar bo'lmaydi. Kosadagi baliq teri ustiga harrak o'rnatilib, shu harak orqali torlar quloqlarga taqiladi. G'ijjak sozining sifati uning yog'och materiallariga, qoplanadigan baliq terisiga, hamda cholg'uga taqiladigan torlarning sifatiga, shuningdek ustaning mahoratiga bog'liq. Shuning uchun cholg'uni yaxshi saqlash, uni o'ta nam yoki o'ta issiq haroratdan ehtiyot qilish, torlarni ijrodan so'ng muntazam maxsus material bilan artib turish va torlarni o'z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek,

g'ijjak sozi dastasida pardalar bo'lmaganligi bois, chalishni o'rganayotgan o'quvchi, avvalo, kamon ushlash, uni ishlatish ko'nikmalari bilan birga chap qo'l holati, dastaning turli torlaridagi notalar joylashuvini to'g'ri o'zlashtira olishi dastlabki bosqichlarda juda muhim. Bu albatta o'z-o'zidan cholg'uning sifatli bo'lishini taqozo etadi. Aynan shu tufayli ham har bir o'quvchi, sozanda o'z cholg'usini yaxshi saqlanishiga doimiy ravishda alohida e'tibor bermog'l lozim. G'ijjak ot qili tortilgan kamon bilan chalinadi, hozirgi vaqtda sun'iy qil ham tortiladi. G'ijjak milliy cholg'u asboblari orasida o'zining kuychan, yoqimli va mayin tovushi bilan ajralib turadi. G'ijjakni o'zbek, tojik va turkman xalqlari «g'ijjak», qirg'iz, qoraqalpoq, qozoq xalqlari «qobuz», kavkaz xalqlari «kemancha» deb nomlaydilar. Garchi bu asboblarning ijrochilik uslublari bir-biridan ma'lum darajada farq qilsa-da, ammo mazkur xalqlar foydalanayotgan g'ijjaklar tuzilishida deyarli farq yo'q. Shu boisdan bir millat foydalanayotgan g'ijjakdan ikkinchi millat sozandasi foydalana oladi. G'ijjak cholg'u asbobining takomillashuvida yuqorida bayon etilgan qardosh xalqlar sozanda ustalarining ham hissasi bor.

Yuqorida ta'kidlanganidek, g'ijjak dastlab ikki torli bo'lib, uning torlari pishitilgan qillardan yoki ichakdan bo'lgan, asosan kvarta intervali bo'yicha (birinchi oktava mi-lya yoki mi bemol-lya bemol) tovushlariga sozlangan.

Uch torli g'ijjaklar ham asosan kvarta ya'ni birinchi tor birinchi oktava mi ikkinchi tor birinchi oktava lya va uchinchi tor ikkinchi oktava re ga sozlangan, asosan, birinchi-uchinchi pozitsiyalar (g'ijjak dastasida barmoqlarning joylashuvi) atrofida chalingan. Keyinchalik g'ijjak diapazonini (notalar oralig'ining kengligi) kengaytirish ehtiyoji to'rtinchi torni joriy etishga olib kelgan.

Garchi ikki va uch torli g'ijjaklar XX asr boshigacha qo'llanilib kelingan bo'lsa-da, ammo to'rt torli g'ijjak tez rivojlanib, g'ijjaklar oilasida asosiy cholg'u soziga aylandi.

Mazkur g'ijjaklarda kuylarni yuqori qismlarini chalish nihoyatda noqulay edi, chunki ularning dastasi pastga qarab ingichkalashib ketishi sababli, quyi qismida ijrochilik mushkullashib borar edi, bu holat hozirgi zamon ijrochilik talablariga javob

berolmay qoldi. Natijada barcha milliy cholg‘u asboblari qatori, g‘ijjak sozini A.I.Petrosyans rahbarligida 1943-1946-yillarda O‘zbekiston san’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti qoshidagi tajriba laboratoriyasida bir guruh ustalar, ijrochilar taklifi hamkorligida bu vazifa muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi. Ko‘p yillik izlanish va samarali tajribalardan so‘ng g‘ijjaklar oilasiga mansub quyidagi cholg‘u asboblarning turkumini yaratishga erishildi:

1. G‘ijjak-prima;
2. G‘ijjak-alt;
3. G‘ijjak-bas;
4. G‘ijjak-kontrabas.

Ushbu sozlar bugungi kunda ijrochilik amaliyotida orkestr, ansambl va yakkanavoz cholg‘u sifatida keng qo‘llanilmoqda. Bu cholg‘ular ko‘p ovoqli musiqalar ijrosida, ayniqsa, orkestr ijrochiligida orkestrning tovush diapozonini kengaytiribgina qolmay, balki uning sifatiga, ijrochilik imkoniyatlarining kengayishiga, shu bilan bir qatorda, o‘ziga xos milliy xususiyatga ega bo‘lgan tovushlarning rang-barang bo‘lishini ta‘minlab berdi.

G‘ijjak turkumining takomillashuvidan so‘ng yuqorida bayon etilgan g‘ijjaklarda quyidagi ijrochilik imkoniyatlari vujudga keldi:

1. Har bir g‘ijjak turining o‘ziga xos barqaror - professional ijrochilik holatlari (postanovka) yaratildi.
2. G‘ijjak tovushlari kuchaydi va har biri o‘ziga xos yoqimli tovush xususiyatlariga ega bo‘ldi.
3. Sozlar kvarta intervalidan kvintaga o‘tkazildi.
4. O‘ng qo‘l holati (postanovkasi)ning yangi professional - postanovkaga o‘tishi ijrochilik va mahorat jihatidan qulay imkoniyatlarni vujudga keltirdi.
5. G‘ijjakning umumiy tovush diapozoni kichikoktava sol dan to‘rtinchi oktava lya notasigacha kengaytirildi.
6. G‘ijjaklarda an‘anaviy ijrochilik bilan birga, nota yozuvi asosida jahon kompozitorlari asarlarini ijro etish imkoniyati paydo bo‘ldi.

1. G'ijjak sozi quyidagicha sozlanadi:

- birinchi tor ikkinchi oktava mi;
- ikkinchi tor birinchi oktava - lya;
- uchinchi tor birinchi oktava - re;
- to'rtinchi tor kichik oktava - sol.

Ta'kidlab o'tilganidek, bugun o'zbek xalq cholg'ularida, xususan, g'ijjak sozida harqanday musiqa, ya'ni o'zbek musiqa merosi namunalri hamda jahon xalqlari va kompozitorlar asarlarini to'laqonli ijro etish imkoniyatlari mavjud. Shu bois g'ijjak sozini turli ijrolarda har-xil sozlash mumkin.

2. G'ijjak alt quyidagicha sozlanadi

- birinchi tor birinchi oktava lya;
- ikkinchi tor birinchi oktava - re;
- uchinchi tor kichik oktava - sol;
- to'rtinchi tor kichik oktava - do.

3. G'ijjak bas quyidagicha sozlanadi

- birinchi tor kichik oktava lya;
- ikkinchi tor kichik oktava - re;
- uchinchi tor katta oktava - sol;
- to'rtinchi tor katta oktava - do.

4. G'ijjak kontra bas quyidagicha sozlanadi

- birinchi tor kichik oktava sol;
- ikkinchi tor kichik oktava - re;
- uchinchi tor katta oktava - lya;
- to'rtinchi tor katta oktava - mi.

Musiqa grekcha Musike ilohiy afsonaviy, xudo Yupitrning menomozing qizi fan va san'at himoyachisidir. Musiqa san'at turlarini badiiy obrazni ohanglar orqali ifodalash.

Musiqa insonning ruhiyati ijodiy faoliyatining rivojlantirishida katta ahamiyatga ega. Musiqa boshqa san'at turlari kabi tasir etib har tomonlama rivojlanishi

uchun ahloqiy estetik tarbiyaga egadir. Boshqa san`at turlari yani badiiy adabiyot teatr tasviriy san`at singari alohida o`ringa ega. Biz bolalarni bog`cha yoshidan dunyodagi barcha guzalliklar bilan tanishtira boriladi. Musiqani faqatgina eshitish va tushinish emas balki biror qo`shiqni, biror cholg`u asbobida ijro etishi ritmini tushuna bilish va o`z musiqiy bilimi orqali bolalarni tarbiya qila bilish kerak. Musiqa san`at turi u odamni yuragini jumbushga keltirishga qodir.

Musiqa inson yaralgandan beri hamroq bo`lgan.

Musiqa insonning hursandchilik kunlarida xalq marakalarida, bayramlarda qayg`uli kunlarda ham inson ruhida ta`sir etib insonga ruhiy ozuqa ta`sir etib insonga ruhiy ozuqa bag`ishlaydi. Musiqa butun borliqni, tabiatni, tarixni hozirgi hayotimizni kelajakni tasvirlab inson ongiga singdira oladi. Musiqa butun xalqlarni bir-biri bilan muloqotda bo`lishiga bir-birlarini tushinishga katta yordam beradi.

O`zbekiston davlat Konservatoriyasining xalq cholg`u asboblar kafedrasining hizmatlari juda kattadir.

Sharq musiqa cholg`ulari deyarli juda ko`p nusxalari shrq olimlari, allomalri tomonidan ihtiyo etib kelinishi. Keyinchalik boshqa davlatlarga tarqalib, ular ko`rinishi va tuzilishi jihatidan bir xil bo`lib, faqat joylashgan muhitga qarab ijro uslublari qo`yish bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, Barcha sharq xalqlarida nay, doira, surnay, ud, tanbur, dutor, chang, g`jjak va boshqa cholg`ular uchraydi. Hindiston, Pokiston, Afg`oniston, bir-biriga, Vina sopad, setor, tanbur, tabl kabi masiqa cholg`ulari Xitoy, Yaponiya, Mangoliyada bir-biriga o`xshash hamda Xitoyning Uyg`ur xalqlari yashagan.

X-XII asrlarda O`rta Osiyo madaniy hayotiga musiqa cholg`u ijrochiligi rivojlangan o`sha davrlarga juda ko`p musiqa cholg`ulari musiqa ijrochiligida keng qo`llanilgan. Bu borada musiqashunos darviyshi Ali CHangi o`zining musiqa risolasida chang, ud, nay, doira musiqa chog`ulari ayniqsa besh va olti qushtorli "Ud" musiqa cholg`usi haqida malumot berib, bu musiqa cholg`usining usha davrdagi mavqiyini va musiqa ijrochiligidagi o`rnini yuqori baxolab "Ud" barcha musiqa

cholg'ularining podshosidir. "Rud" musiqa cholg'usi hamon kamon vositasida ijro etilganligi haqida ma'lumot beradi.

A. A Selinov Sredniy-Aziatskiy traktat musike Darvish Ali Tashkent, 1946-y st.18 tarixidan bilishimizcha IX-X asrda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o'z zamonasida "Rud" va "Chang" musiqa cholg'ularini mohir ijrochisi bo'lgan. Abu Nosir Farobiy (873-950)musiqa ilmiga katta etibor berib musiqa cholg'ularining ijrolari musiqa nazariyasi" sharq Nomatizimini yaratish va ularni yaratishi o'sh davrdagi musiqa ijrochiligiga qo'llanilshi masalalari matematika fanini mukammal o'rganishi bilan birga matematika faninig bir turi hisoblangan. Musiqa ilmini o'rgatish va uni targ'ib etishda o'zining buyuk hissasini qo'shgan.

Tibbiyot dunyosining allomasi Abu Ali Ibin Sino (980-1037) musiqa ilmiga katta etibor berilgan. Barcha musiqiy namunalarda aytilishicha Abu Ali Ibin Sino Sulton Mahmud G'aznaviy Nosir Xusraviy asosan birgalikda "g'ijjak musiqa cholg'usini ixtiro qildanligi haqida ma'lumot bergan".

XIV-XVI asrda asosan madaniyat va san'atga katta o'zgarishlar yuz berdi. Mirzo Ulug'bek davrida ayniqsa Movorounnahr madaniyati ancha yuksaldi. Ulug'bek Samarqand va Xirotda mashhur buyuk allomalr, olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar davrasida usha davrada sharqda mashhur Muhammad Xorazmiy, Qozizoda Rumi. G'iyosiddin Ibn Ma'budiy, Ali Qushchi va boshqalar bilan birga ijod qiladi. Abdurauf Fitrat Ulug'bek zamonasida Samarqandda yashab ijod etgan musiqa ilmining namoyondalari haqida ma'lumotlar berib Samarqandlik Darvish Ahmad qonuniy, Sulton Ahmad Noiy, Qoraqo'llik Xisoriy, Xorazimlik Abu Vafo musiqashunos Sohib Balhiy, Shaxrisabzlik bastakor Abdul Baraka Navoiyning mualimi mashhur sozanda Huja Yusuf Burhon va boshqa ko'pgina allomalarimiz musiqa ilmiga katta hissa qushganlar.

1449-yili Ulug'bek vafotidan so'ng Hirot shahri poytaht bo'lib, Alisher Navoiy madaniyat san'atning rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan. Bu davrda sazandalardan Hasan Noyi, Qo'lmohammad Udiy, Hasan Balaboniy, Ali Xonadoiy Muhammadiy, Ahmad G'ijjakiy, Ali Ko'chak Tanburiy va boshqalar xirotda shahrida

yashab ijod etganlar. Ayniqsa Alisher Navoiy musiqa dunyosining nomoyondalariga o'zi homiylik qiladi tez-tez bo'lib turadigan bazm mushoiralarda tantana va tamamlari turli musiqa cholg'ulari ijrochilari qatnashganligi haqida malumot beradi. XVI asrga kelib madaniyat san'at shu jumladan musiqa san'ati ham tushkunlikka tushadi.

XVII asrga kelib Buxoro, Quqon, Xorazm xonliklarga bo'linib ketadi. Ma'lumki O'rta Osiyo xalqlari juda ko'p tarixiy voqialarni boshidan kechirib boshqa fanlar qatori musiqa ilmi ham, goh rivojlanib, goh tushkunlikka tushib musiqa cholg'ulari ijrosi sozanda va cholg'ularni, xonandalar, musiqashunoslar turli hil holatga yashab ijod qilganlar. Ko'pgina musiqa cholg'ulari turli hil davlatlarga olib ketilib har xil holatlatga musiqa ijrochilariga qo'llanilgan. Umuman O'rta Osiyo madaniyati sharq madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan. Markaziy Osiyo hududidagi O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston davlatlariga turli tuman musiqa cholg'ulari bo'lib, bu davlatlarda bir hil asoslarning ijrosiga mo'ljallangan, cholg'ular milliy musiqa ijrochiligiga keng qo'llanilmoqda. Ular tanbur, dutor, doira, rubob, surnay, karnay, g'ijjak, nog'ora, chang, kobuz, dumbura kabi cholg'u asboblari.

G'ijjak cholg'u asbobining kelib chiqish jarayoni.

Abdurauf Fitrat o'zining uzoq yillik musiqasi va uning tarixi asarida ma'lumot berishicha 1920-yillarda Buxoroda tanbur, dutor, nay, qushnay, surnay, dumbira, rubob va boshqa musiqa cholg'ulari ijrochilikda qo'llanilgan.

O'rta Osiyoning barcha hududida dutor, dumbira, doira, g'ijjak, nay ko'p uchraydi.

O'rta Osiyoning yirik shaharlaridan Toshkent, Dushanbe Olmaota, Samarqand, Buxoro shaharlarida O'rta Osiyo va umumjahon miqyosidagi musiqiy anjumanlar o'tkazib milliy musiqa ijrochiligiga hos asarlar jumladan milliy musiqa cholg'ularining ijrolari nomoyishi etilmoqda. 1973-yilda Olmaota shahrida o'tkazilgan. Osiyo davlatlari musiqiy tribunasi 1990-yil Dushanbe shahrida Borbad Marvazeyning tavalludiga 1400-yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan umumjahon musiqiy anjumani. 1975-yil Toshkent shahrida o'tkazilgan "Maqom mug'am va zamonaviy bastakorlar ijodi",

Samarqand shahrida ko'p yillardan buyon o'tkazib kelinayotgan umumjahon musiqiy anjumanlari va keyingi yillarda Samarqandda o'tkazilib kelinayotgan umumjahon musiqiy anjumanlari va keyingi yillarda Samarqandda o'tkazilayotgan "sharq taronalari" musiqiy anjumanlar shular jumlasida misol bo'la oladi.

O'rta Osiyo Kavkaz va sharq zalqlari musiqa ijrochiligida g'ijjak va kamonli sozlarda ijro uslublari bir necha hil bo'lib, har qanday millat o'z ijro uslubiga egadir. G'ijjakda ijrochilik uslublari qadim-qadim zamondan boshlanib yillar, asrlar o'tmish bilan ijrochilik uslublari, cholg'u asbobining tuzilishi hali takomillashib sozlar o'zgarib kelmoqda. G'ijjak ot qim tortilgan kamon bilan ijro etilib o'zining ohangi, kuychngligi, yoqimli va mayin tovush bilan ajralib turadi.

Tarixdan ma'lum bulishicha, G'ijjak so'zini kelib chiqishi X-XI asrlarga borib taqaladi. Mirzo Bobur zamonalarigacha G'ijjak ikki torli bo'lib pishitilgan ichakdan tortilgan.

Bobur zamonida uch torli bo'lgan. O'sha davrning mashhur cholg'u ijrochisi, sozandasi Qo'l Muhammad Udiy g'ijjakda uchinchi torni yuqori mahorat bilan ijro etgan.

Uch torli g'ijjaklar 20 asrning birinchi yarmiga ijrochilikda qo'llanilib tuzilishi ijro usliblari ham 1936-yilda boshlangan cholg'u asboblarning takomillashuv jarayoni g'ijjak cholg'usida ham o'zgarishlar olib keldi. G'ijjakda to'rtinchi torni Usta Usmon Zufarov tomonidan taqilib g'ijjak cholg'usi to'rt torli cholg'uga aylantirildi. Sozlar kvarmadan-kvintaga o'tkazildi. Ijrochilik uslublari ham o'zgarib, g'ijjak sozida faqatgina milliy kuylar emas balki jahon xalqlari va jahon xalq milliy musiqalarini ijro etish imkoniyati yaratildi. Kamon ushlashni yangicha uslibi ham g'ijjakda ijro etishda murakkab bulgan jahon musiqalarini ijro etish imkoniyatini yaratdi. Ko'p ovozli akkordlarning ijrosi g'ijjakdagi dastaning o'zgarishi, g'ijjak sozini deapazonini kengaytiradi.

Kamonni ushlashni yangicha uslubi ustida ilmiy izlanishlar olib borildi G'ijjak cholg'usi ustida professional ijro malakalarini shakillantirishdga olib keldi. G'ijjakda texnik ijro imkoniyatlari kengaydi. Sozning kvartadan-kvintaga o'tkazilishi dastaning

o'zgarishi yani g'ijjak dastagini pasga qarab yunaltilishi g'ijjak teopazani to'rtinchi oktavami gacha kengaytirilib boradi.

Ushbu ijrochilik imkoniyatlarini o'zlashtirishda.

G'ijjakning o'ziga xos barqaror ijrochilik holati yaratiladi.

G'ijjakda tovush hosil qilish kuchaydi va tovush o'ziga xos tembiriga ega bo'ldi.

Sozlar kvartadan-kvintaga o'tkazildi.

G'ijjakning tovush deapazonini kendaytirishdi.

Kamon ushlarining o'ng qo'l holati yangi professional holatga o'tishi g'ijjakda tenik ijrochilik uchun qo'lay sharoit va imkoniyatlarni yaratdi.

G'ijjak ijrochilik uslublari:

G'ijjak cholg'ularining asrlar yillar davomida takomillashib borishi o'sib kelayotgan yosh avlodni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini qondirib bormoqda va mehrini qozonmoqda.

G'ijjak cholg'usida o'qishni 9-10 yoshli bolalarga musiqa maktabi tugaraklariga olib borishmoqda. G'ijjak cholg'usida o'rgatishda nota yozuvlari orqali hamda ustoz shogird an'analari orqali bilish va tarbiya berib kelinmoqda. Ushbu ikki usul ham bolalarni g'ijjak cholg'usida ijro imkoniyatlarini kengaytirishi, ijrochilik uslublarni to'g'ri qo'llash kelajakda profesional g'ijjakchi bo'lib yetishlariga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

G'ijjak darsi bo'yicha dars o'tish murakkab va uta ijodiy jarayondir. Qushimcha g'ijjak o'rganishda birinchi qiziqtirishi, uning kelishish qobiliyatiga, eslab qolish xotirasiga katta e'tibor berish kerak. Barmoqlari uzun bo'lishi lozim. O'quvchini darsga bo'lgan diqqat va e'tiborini to'la jalb etibgina qolmay, balki darsga bolgan qiziqishini ortirish kerak. G'ijjak chalishni o'rgatishdan oldin revalya torida ijro etilsa yaxshiroq natija beradi. G'ijjakda ijrochilik ko'nikmalari rivojlantirilsa gamma arpedjio, har xil mashq va etyutlar muntazam o'rganib borish katta ahamiyatga ega. Gamma, arpedjio, mashq va etyutlar ustida ishlashda ijrochilikning sifatiga, kamoning to'g'ri tortilishiga tovushning mayin va toza ijro etilishida, barmoqlarning aniq va to'g'ri bosilishiga tovushning tiniq, mayin va nafisligiga usul, ritm aniq his etilishiga

pozitsiyalarning erkin almashinuviga va ayniqsa tovushning tozaligiga etiborni qaratish lozim., Birinchi pozitsiyada barmoqlar o'z o'rnini egallashi uchun va oddiy bir oktovali gammalarni tog'ri to'liq kamonda ijro etish, barmoqlarni yani chap qo'l barmoqlarini to'rt barmog'ini ishlatishi gamma chalganda yuqoriga borishda ochiq simlarda qaytishda esa 4-barmoq bilan yopiq ijro etish o'quvchiga 4- barmog'ini ham harakatini yaxshilaydi.

Barmoqlarni to'g'ri egallashi uchub qo'shimcha eslatmalarni chalganda fartopiyana jo'rligida olib borilsa, badiiy tomonini boyitadi.Ijro vaqtida fortipiya jo'rligida toza tovushni eshitib g'ijjakda ham toza tovush ijro etishga harakat qiladi. Yuqoridagi mashqlari torida mator va minor tonliklarida barcha torlarida mashqlar olib borishi mumkin.

Ushbu mashq o'quvchilarini g'ijjak dastasini 1-pozitsiyani o'zlashtirishlari uchun juda qo'laylikdir. O'quvchini o'rganishi qiyin bo'lgan o'quv materiallash chetlab o'tmay, aksincha o'quvchisi bunday qiyinchiliklarni yengishiga ko'nikma hosil qilish darsini o'zlashtirishda yaxshi natijalarga olib keladi. Faqatgina o'quvchiga yengil, oddiy sanoqli asarlar berib borilsa o'quvchini murakkab bo'lgan ijrochilik texnikasini rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi, bu esa o'quvchini ijrochilik malakasini rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi. O'qituvchi har bir o'quvchiga vazifa tondirishda uning imkoniyat darajasini hisobga olgan holda aniq vazifa berishi va berilgan vazifani muntazam tekshirib borishi maqsadga muvofiqdir. Musiqa asrni borishdan oldin o'quvchiga oddiy bir belgi ikki brlgili gammalar bilan ,mumtazam shug'ullanishi, kamoniyy to'liq ishlatadigan kamonni yarimida ijro etiladigan har bir asarni ijrosiga kirishishdan oldin asarni har tomonlama tahlil qilinishi bunda o'quvvhi asarni kalit oldi belgilari qanaqa tonlikda y6ozilganligi, asarning o'lchovi, asarda qo'llaniladigan shtrixlar, dinamik belgilar va boshqa ma'lumotlatni o'qituvchi bilan birga tahlil qilinadi.Musiqa asarning murakkabroq joyi o'qituvchi tomonidan ijro etib ko'rsatilib o'quvchi bilan qayta-qayta ijro etilishi lozim. O'quvchi shu asarga tushuncha malakasini hosil qiloshi lozim. Biz bilamizki g'ijjakda kamon ushlashning ikki hil uslubi qo'llaniladi. Birinchi an'abaviy uslub bo'lib bu uslub xalq kuylarini

maqomlarini ijro etishda ko'llaniladi. Ikkinchi uslub esa 1948-yildan boshlab O'zbekiston Davlat Kanservatoriyaning datsenti san'atshunodlik fanlari nomzodi I.R. Blagovenshchenskiy tomonidan qo'llanilgan.

Keyinchalik uning shogirdlari S. Xolmuhammedov va M. Asilov tomonidan davom ettirilgan va hozirgacha yaxshi natijalar berib kelmoqda.

G'ijjakda hozirgi vaqda anchagina to'plamlar darsliklar nashr ettirilgan.

Masalan:

1. Gijjak darsligi S. Aliyev Felisiant. T. 1961-yil.
2. "G'ijjakk navolari" O. Xolmuhalidov. T. 1986-yil.
3. G'ijjak darsligi. M. Toshmuhammedov. T. 1995-YIL.
4. yosh g'ijjakchi J. Usmonov. T. 1995-yil.
5. An'anaviy g'ijjak ijrichiligi S. Azizboyev. T. 2005-yil.

Ushbu darsliklarda o'quvchilarni g'ijjak o'rganishida boshlang'ich ma'lumotdan boshlab an'anaviy musiqa xalq kuylari maqomlar zamonaviy kompazitorlarini asarlari mavjud. Asar tanlashda ko'pgina skripka uchun mo'ljallangan asarlar toplami mavjud bo'lib, bu to'plamdagi asarlardan g'ijjak uchun ham foydalanilsa, foydadan holi bolmaydi. Yosh g'ijjakchi o'quvchilarimizga kechik-kechik xalq kuylarini o'rgatib borsak yaxshi bo'ladi. Biz bilamizki milliy dastur asosidagi uzliksiz ta'lim mezonlarida an'anaviy saboq boshlang'ich jarayonidan kiritilgani barchamizga malum. O'zbek musiqa, ijrichiligi boshqa sharq xalqlari kabi o'ziga hos sayqalarga boy, dardli va tarovatli ohanglarni tarannum etishga asoslangandir.

Ma'lumki g'ijjak cholg'udi ancha murakkab asbob bo'lib, ushbu chog'u asbobida muntazam mashq qilib turish kerak.

Mashq jarayonida vibratdita, nola, kashish, qochirim, farshlag, naxshilog, mardent singari mashqlarni mumtazam mashq qilinsa kungildagidek mashq qilib yurilmasa ijroga erishib bo'lmaydi.

G'ijjakda tovush hosil qilishning ahamiyati.

Bu cholg`uda Farobiy uch qismda kuy ijro etib tininglovchilarni ham yig`latgan, ham kuldirgan va hayajonga tushirgan ekan. G`ijjak oldin ikki torli bo`lgan "Boburnoma" da yozilishicha Bobur zamonida g`ijjak uch torli bo`lib, g`ijjakning uchinchi torini o`z davrining mashhur sozandasi Qo`lmuhammad Udiy g`jjakga uchinchi torni taqib yuqori mahorat bilan ijro etgan. Darvishlarning risolasida ko`pgina g`ijjaklar qatori Ustoz Zaytuniy g`ijjaki haqida qimmatli ma`lumotlar bor,u juda mohir gijjakchi bo`lib, maqomning turli pardalarida chiroyli kuylar bastalagan edi. Alisher Navoiy g`ijjakka tarif berar ekan, g`ijjak cho`ziq notalar bilan nolalar chekib yolvoradi, deydi. Gijjak cholg`u asbobini 1936-yil, 1938-yillar A. Upetrosyans rahbarligida ustalar ijrochilar g`ijjakni nota bilan ijro etishga mo`ljalladilar.

Asta-sekin takomillashiga borib g`ijjakning 4-torini usta Usmon Zufarov tomonidan taqildi. Gijjaklar oilasi yani g`ijjak alt,g`ijjak bas va gijjak kontrabas yaratildi. G`ijjak ansanbillari kvartet, kamer arkestri paydo bo`la boshladi. Arkestirda kamonchlar sozlar guruxi deapazonni katta oktava midan 4-oktava lya gacha kengayadi. Qayta taminlangan g`ijjakda an`anaviy ijro uchun hammaga imkoniyatlar yetarli bo`ldi. Shunday qilib, quyidagi g`ijjaklar oilasi yaratildi.

G`ijjakning sozlanishi.

G`ijjakning torlari to`rta bo`lib.

- 1.Mi 2-oktava.
2. Lya 1-oktava.
- 3.Re 1-oktava.
- 4.Sol kichik oktova.

G`ijjak al`t.

- 1.Lya 1- oktava.
2. Re 2-oktava.
- 3.Sol kichik oktava.
- 4.Do kichik oktava.

G`ijjak bas.

- 1.Lya kichik oktava.

2.Re kichik oktava.

3.Sol katta oktava.

4.Do katta oktava.

Gijjak kontra bas.

1.Sol kichik oktava.

2.Re kichik oktava.

3.Lya katta oktava.

4.Mi katta oktava.

Har bir cholg`u asbobi singari g`ijjakni ham avaylab asramoq zarur, g`ijjakning kosasi xonasi urik tut yoki yong`oq yog`ochidan uyib yasaladi. Suyakda baliq terisi bilan qoplanadi. Torlarni ot qilidan tortilgan kamoncha bilan tovush hosil qilinadi. G`ijjakni avaylab asrasa u ijrochiga ko`p vaqt xizmat qiladi.

Ma`lumki g`ijjak ob-havo o`zgarishiga sezgir bo`lib, sovuq va nam havoga qosa terisining taranligi susayish natijasida bir ov cho`kadi, bu esa albatta g`ijjakning tovush sifatiga sal`biy ta`sir yetkazadi. Kun issiq bo`lsa, teri taranglashib soz ko`tariladi. Shuning uchun g`ijjakni g`ilofga joylashtirishdan oldin kosa terisini bir hil havoga ushlab turish uchun kosa xonani yumshoq mato bilan o`rab qo`yish shart. Gijjakni kosasida dastaning vandiga yig`ilib qolgan kanifol kukuniga artib tozalab turilsa, g`ijjak yaxshi sadolanadi.

G`ijjakda ijro malakalarini oshirish boshqa cholg`u asboblariga qaraganda ancha murakkab jarayondir. G`ijjakda o`rgatishni 9-10 yoshli bolalardan boshlansa ancha yaxshi bo`ladi. Chunki bolalarni o`tirish kamon ushlash holatlariga katta e`tibor berish kerak, o`quvchini o`ziga yarasha kursi kanoblar bo`lishi lozim. Ichrochining harakati katta ahamiyatga ega. U qanchalik tejamli va tabiiy o`tirsa ijro shunchalik qo`lay buladi. Ijro harakatida sezganda gavdasi o`tirish holati chap oyoqning o`zurnida qo`yilishi o`ng qo`l ustiga chap qo`lholati tabiiy va erkin bo`lmog`i kerak. Harakatni suyanchig`lga suyanmasdan oldingi yarmiga o`tirilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ichrochi o`quvchi kursiga o`tirganda oyog`i ostiga tachlik qo`yiladi. Chop

oyoq bir oz oldinga chiqib turadi, g`ijjak umuman ikkita tayanchi nuqta yordamida chap qo`l, chap oyoqda muvozonat saqlaydi.

G`ijjakning kosasi ijrochining tanasiga zich tegib turmasligi lozim. Shunda u tordan-torga o`yib chalinayotgan chap qo`l yordamida cholg`uni zarur tomonga bir oz burishi osonlashadi. Chap qo`lning dastagi holatlari G`ijjak dastasini qanday qilib to`g`ri ushlash kerak? Ijro jarayonida chap qo`l barmoqlarining holati qanday bo`lishi lozim? Harakatning tabiiy hamda qo`lay bo`lishiga qanday erishiladi. G`ijjak cholg`usi g`ijjakchining o`ziga mos bo`lishi kerak. Chap qo`l dastani ushlaganda bosh barmoq 1-barmoq bilan to`g`rima-to`g`ri yani son torida lya-pardasi bilan to`g`rima-to`g`ri bo`ladi.

Agar dastani siqib ushlasa vibratsiya qilish qiyin bo`ladi. Shuning uchun dastani qismasdan ushlab vibratsiya qilishi kerak bo`ladi. G`ijjak dastasi ijrochining yelkasiga tegib turnasligi kerak. G`ijjakda ijro eta boshlaganda 1, 2, 3, barmoqlarini torlardan juda baland ko`tarilmasligi kerak. Chap qo`l tirsagini holati to`g`ri ushlansa barmoqlar sol, re, lya, mi torlarida barmoqlar bermalol harakat qiladi.

G`ijjakda 1, 2, 3, 4 barmoqlar yaqinlashib harakatlanishi uchun bosh barmoq qarshisida chalingani ma`qo`l. 1 - barmoq sol torida lya pardasini to`g`risida bo`magani ma`qo`l. Ijrochi hamma torlarda 1 – 4 barmoqlarni erki ijro etish, intonatsiya toza ijro etilsa, chap qo`l barmoqlarining erkin ijro etsa, chap qo`l barmoqlarining ishlanishi to`g`ri bo`ladi.

G`ijjakda ijro etadigan o`quvchi pardaga barmoqlarining uchi dumbuqchasi bilan pardalarni bosadi, tirmoqlar simalarga tegmasligi kerak, chalinayotgan barmoqlar esa ijroga shay turmog`i lozim. O`qituvchi o`quvchiga barmoqlarni to`g`ri dadil bosishiga o`rgatishi kerak. Aks holda barmoqlarni qattiq bossa yoki y etarli xuch bilan bosmasa kerakli tovushni hosil qila olmaydi.

O`ng qo`l ko`nikmalari.

Hozirgi g`ijjak ijrochiligida kamonni ikki hil ushlash usuli qo`llanilmoqda.

Birinchisi - an`anaviy. Ikkinchisi-skripka, alt ijrochiligiga qo`llaniladigan uslub bo`lib, bu ikki hil uslub hali o`z yo`lida ishlatilsa, yaxshi natijalar beradi. An`abaviy

ijrochilikdagi asarlar ijro etganda 1-uslub o'zbek kompazitorlari, qardosh va chet el kompazitorlari asarlarida 2 - uslubni qo'llash ijro etilsa yaxshi natijalar beradi. Ikkinchi uslubning ushlashga va ijroga qo'lay ekanligi ustida Blagovsmenskiy va O.Xolmuhammedovlar samarali izlanishlar olib borgan edilar. Bu izlanishlar hozirgi kunga ham kelib o'z samarasini berib kelmoqdadir.

Tovush hosil qilish.

G'ijjakda musiqa maktablarida yangi o'rgana boshlagan o'quvchilarga 1-navnatda g'ijjak tarixi, g'ijjak ijrochiligida shuxrat qozongan cholg'uchilar haqida ma'lumotlar berish uchun o'rgatish lozim. G'ijjakni yangi o'rgana boshlagan o'quvchi qo'llari toliqib qolmasligi uchun ikki o'lchovli kamon bilan o'rgatish kerak.

Chunki 9-10 yoshli bolaga o'lchovli kamonda ijro etishni o'rgatilsa qo'llari barmoqlari tez charchab toliqib qoladi, g'ijjak o'rganishga qiynalib g'ijjakni chalmaydi hamda qiziqishi susuya boradi shu sababli kichik kamonda o'rgatishi maqsadga muvofiq. O'quvchi kamonni to'g'ri, qo'lay va tabiiy ushlashni mashq qilgandan so'ng, uni ochiq torlarda mashqlardan boshlanadi. Tovush toza va yoqimli va sof sadolanishi uchun kamonni yurgizishda katta etibor berilmog'i kerak.

1. Kamonni doimo torning bir joyida harakat bilan dasta oralig'ida yurgiziladi.

2. Kamonni to'g'ri va tekis harakatlantirish kerak.

3. Kamonni barcha simlarda bir hil bosish bilan tortish lozim.

Kamonni pastgi P, yurqoriga va belgilar bilan belgilanib qo'yiladi. G'ijjakda tovuzush hosil qilish uchun kamonni to'g'ri to'liq boshidan ohirigacha tortishi birinchi kamonni pastga tortishi yuqoriga tortishi kamonni bo'lib-bo'lib tortishlarni o'rgatish kerak, kamonni har xil bo'laklarga bo'lib ijro etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

